

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**“TARIX” KAFEDRASI**



**TARIXIY O'LKASHUNOSLIK**

**Fanidan zamonaviy pedagogik texnologiya asosida tayyorlangan**

**O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

**Bilim sohasi: 100000-Gumanitar soha**

**Ta'lim sohasi: 120000 – Gumanitar fanlar**

**Ta'lim yo'nalishi: 5120300-Tarix (jahon mamlakatlari bo'yicha)**

**GULISTON – 2017**

Ushbu O'quv-uslubiy majmua O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 02.02.2015 yil sanasidagi № 32-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan fan dasturi asosida ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchi:** B.K.Samadov. GulDU "Tarix" kafedrası o'qituvchisi

**Taqrizchilar:** O'.S.Erbo'taeva. GulDU "Tarix" kafedrası katta o'qituvchisi, t.f.n.  
B.To'ychiboyev. GulDU "Tarix" kafedrası dotsenti

O'quv-uslubiy majmua GulDU O'quv-uslubiy Kengashida ko'rib chiqilib, \_\_\_\_\_ sanasidagi № - sonli bayonnomasi bilan ishlatishga tavsiya etilgan. O'UK raisi: \_\_\_\_\_ **b.f.d.**  
**prof. H.Qo'shiev**

**MUNDARIJA:**

Kirish.....	4
I. O'quv materiallari	
I.1. Ma'ruza mavzulari.....	5
I.2. Seminar mashg'ulotlari.....	31
I.3. Xorijiy va mahalliy adabiyotlar ro'yxati.....	40
II. Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari.....	42
III. Glossariy.....	45
IV. Ilovalar	
IV.1. Fan dasturi...../.....	48
IV.2. Ishchi fan dasturi.....	56
IV.3. Tarqatma materiallar.....	70
IV.4. Nazorat savollari.....	74
IV.5. Ishchi fan dasutriga muvofiq baholash mezonilarini qo'llash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar.....	75

## KIRISH

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy o'z-o'zini anglash va qadriyatlarimiz tiklanayotgan bir paytda xalqimiz tarixini o'rganishga bo'lgan e'tibor kuchaydi. Vatanimiz boy tarixi va madaniyati milliy istiqloq g'oyasi bilan sug'orilgan holda yangicha, haqqoniy va xolislik bilan yoritilmoqda. «Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o'z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlari tarixini bilishga, o'zlikni anglashga qiziqish ortib bormoqda. Bu tabiiy hol. Odamzod borki, avlod-ajdodlari kimligini, nasl-nasabini, o'zi tug'ilib voyaga etgan qishloq, shahar, xullaski, Vatanining tarixini bilishni istaydi», deb ta'kidlagan edilar I.A.Karimov bir guruh tarixchi olimlar bilan o'tkazgan uchrashuvda (Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. –T.,1998).

Yoshlarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda, ulkan vazifalarni amalga oshirishda, ular qalbida o'z yurti bilan faxrlanish, g'ururlanish hissini uyg'otishda o'lka tarixini o'rganishning ahamiyati kattadir, binobarin, xalqimizning boy o'tmishi, moddiy va ma'naviy madaniyati, urf-odat va an'alarini bilmasdan turib, hozirgi tezkor davrda olg'a qarab harakat qlish qiyin.

Ma'lumki, tarixni o'qibgina qolmay, uni anglab olib, idrok etsh va ilmiy xulosalar chiqarish kerak. Tarixiy o'lkashunoslik har birimizga o'zimiz yashab turgan joy, Vatanimiz tarixining bir bo'lagi ekanligini, uni o'rganish bzga katta mas'uliyat yuklashini, unda nimalarga e'tibor berishimiz kerakligi, kelajak o'tmishdan boshlanishini o'rgatadi.

Mazkur o`quv-uslubiy majmuada «Tarixiy o'lkashunoslik» fanidan muammoli ma'ruzalar, seminar mashg'ulotlari rejalari, tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati, mustaqil ish topshiriqlari, amaliy mashg'ulotlar ishlanmalari keltirilgan bo'lib, talabalarga o'z bilim va ko`nikmalarini, vazifalarni mustaqil bajarish bo'yicha malakalarini oshiradi degan umiddamiz. Kelgusida masofaviy ta'limdan o'quv jarayonida foydalanishni hisobga olib, ayrim o'zgartirishlar keltirmoqchimiz.

O'z e'tiroz va takliflaringizni Guliston sh, 4-mavze, Ijtimoiy-iqtisodiy fakulteti binosi, 112-xona, «Tarix» kafedrasiga bildirishingizni so`raymiz.

## I. O'QUV MATERIALLARI

### I.1. Ma'ruza mavzulari.

#### 1 - MAVZU: TARIXIY O'LKASHUNOSLIK FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI

##### **Asosiy savollar:**

- 1 Tarixiy o'lkashunoslik fanining predmeti.
2. Tarixiy o'lkashunoslik fanining maqsadi va vazifalari

##### **Tayanch tushuncha va iboralar:**

Tarixiy o'lkashunoslik, fanning predmeti, o'rganish ahamiyati, maqsadi va vazifalari.

##### **1-asosiy savol bayoni:**

Bugungi o'z-o'zini anglab, mustaqilligimiz kun sayin mustahkamlanib borayotgan sharoitda ona yurtning har bir farzandi uchun Vatan tarixini sevish, o'rganish, diliga jo etishdan ham muqaddasroq burch bo'lmas kerak. Ota-bobolarimiz, ajdodlarimizning aql-zakovati, oltin qo'li ila kishi aqli bovar qila olmaydigan darajada nafis va nozik qilib ishlangan naqshlar, qadimiy va navqiron Samarqand, Buxoro, Xiva devorlarida o'zini ko'z-ko'z qilib turibdi. O'sha davr uslubi bilan yuksak mahorat ko'rsatib qurilgan muhtasham binolar va bu binolardagi Sharq uslubiga xos uymakorlik naqshlari o'z taraqqiyotining cho'qqisiga ko'tarilganligidan guvohlik beradi. Ajdodlarimizning yuksak san'ati timsollari bugun hammani lol qoldirib turibdi. qadimgi va o'rta asrlar me'morchilik obidalarini saqlash, o'rganish va muhofaza qilish hozirgi zamon yosh avlodni, mehnatkashlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, xalqlarning do'stligini mustahkamlashda katta rol o'ynaydi. Shuning uchun ham o'tmish tarixiy va moddiy-madaniy yodgorliklarini o'rganish, muhofaza qilishning rolini oshirishning muammolarini xal qilishga katta ahamiyat berilmoqda. Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganlaridek, "tarixiy xotirasiz kelajak yo'q". O'z tarixini bilmagan xalq manqurtga aylanadi. Tarixni bilishda esa tarixiy o'lkashunoslik fanining o'rnini alohida ahamiyat kasb etadi.

Tarixiy o'lkashunoslik hozirgi kunda o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan O'zbekiston xalqlarining qadimiy tarixini, uning jahon taraqqiyotiga qo'shgan katta hissasini, o'z bag'ridan Al Xorazmiy va Ali Kushchi singari mashhur matematiklar, Ahmad Farg'oniy va Ulug'bekdek falakiyot bilimdonlari, Ibn Sino kabi tabiblar, Narshaxiy va Abulg'ozixon singari tarixchilar, Forobiydek faylasuflar, Zamaxshariy kabi lingvistlarni yetishtirib, jahon taraqqiyotiga qo'shgan hissasini daliliy ashyolar vositasi bilan isbotlab beradi.<sup>1</sup>

Tarixiy o'lkashunoslik yana shunisi bilan ahamiyatliki, unda tarixiy, ma'naviy yodgorliklar, O'lkashunoslik, antropologik, etnografik, etnik, toponimik materiallar ham o'z ifodasini topgan.

O'zbek xalqining tarixiy, madaniy va me'morchilik yodgorliklari jahon madaniy merosining tarkibiy qismi bo'lib, jahon sivilizatsiyasiga qo'shilgan goyat katta ulushdir. Mana shunday muhim, nodir, qimmatli ahamiyatga molik bo'lgan moddiy va ma'naviy yodgorliklarni har tomonlama ilmiy va amaliy jihatdan o'rganadigan va tahlil qiladigan fan ham "Tarixiy o'lkashunoslikdir".

O'lkashunoslik fani ta'lim-tarbiyani turmush, ishlab chiqarish, yangi jamiyat qurish tajribasi bilan uzviy bog'liq holda o'rganadi. O'qitish jarayonida o'lka materiallaridan o'rinli foydalanish o'quvchilarning o'z o'lkasini, uning tarixini bilib olishga, chuqur bilim olishga, mustaqil ijod qilishga bo'lgan qiziqishini orttiradi va kelgusi hayot yo'lini tanlab olishga yordam beradi. Maktab o'lkashunosligi fanlar o'rtasidagi aloqani mustahkamlaydi hamda o'qituvchi zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. U dastur asosida, uz a'zolarining bilim darajasi hamda ijodiy kobiliyatlarini hisobga olgan holda tadqiqot o'tkazish ishining rejasi va ish hajmi hamda uslubini ishlab chiqadi. O'lkashunoslikning butun muvaffaqiyati shu ishga rahbarlik qilayotgan o'qituvchining bilimiga va

<sup>1</sup> Bayram Balçi. Özbek eley. Olmonia. Bayern München. 2010

tashkil qila olishiga bog'liq. Agar o'qituvchi o'z o'lkasini yaxshi bilsa, bu haqdagi og'zaki va yozma manbalarni muntazam o'rganish bilan birga o'quvchilarning ota-onalari, keksalar, o'lkashunoslik tashkilotining xodimlari bilan suhbatlar olib borib, pedagogik mahoratini ishga solsa, o'quvchilarning faolligi ortib boradi, o'tilgan materiallarni o'tib o'zlashtirish bilan birga uning hayotga ham tadbik qila boshlaydi. Natijada o'quvchilarning puxta bilim olishi bilan birga o'z o'lkasiga mehr-muhabbati ortadi, va tarixiy tasavvuri hamda tarixiy tushunchasi shakllanib boradi.

O'lkashunoslik tarixiy obidalarini saqlash va himoya qilish, qadimiy manzilgohlarni topishda ham katta rol o'ynaydi. U jamoa bo'lib yashash, ishlash va ijod qilishga o'rgatadi. O'quvchilarda sinchkovlik, tirishqoqlik, tevarak-atrofga havas bilan boqish, tadqiqotga qiziqish, Vatanni sevish va uni ardoqlash hislari shakllanib boradi. O'lkashunoslik o'quvchilarda o'z Vataniga mehr uyg'otish bilan birga ularni estetik ruhda tarbiyalashga ham munosib hissa qo'shadi.

### **MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR:**

1. Nima uchun o'tmish tarixiy va moddiy-madaniy yodgorliklarni o'rganish, ularni muhofaza qilishga katta ahamiyat berilmoqda?
2. Tarixiy o'lkashunoslik fani nimani o'rganadi?
3. Tarixiy o'lkashunoslik fanining ta'limiy ahamiyatini ochib bering.
4. Tarixiy o'lkashunoslik fanining tarbiyaviy ahamiyatini ochib bering.
5. Tarixiy o'lkashunoslik fanining tarixiy fanlar tizimida to'tgan o'rnini ko'rsating.

### **2-asosiy savolning bayoni:**

Oliy o'quv yurtlarda va maktabda o'qitilayotgan tarixiy o'lkashunoslik fani ma'lum ikki maqsadni: birinchidan, o'z o'lkasining o'tmishi va hozirgi hayoti tarixini har tomonlama ilmiy asosda o'rganish yo'li bilan to'plangan O'lkashunoslik, etnografik, toponimik, nodir qo'lyozmalar, arxiv hujjatlarini saralash, tartibga solish va tahlil qilishni; ikkinchidan, to'plangan o'lka materiallaridan o'quv-tarbiyaviy ishlarda o'rinli va samarali foydalanib, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni ko'zda tutadi. Tarixiy o'lkashunoslikni o'qitish va o'rganishda mahalliy materiallardan, tarixchi olimlar asarlaridan, arxiv materiallaridan, muzey ma'lumotlaridan, arxivlardagi kartoteka va ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

O'lkashunoslikning asosiy vazifalari to'plangan materiallar bo'yicha talabalarda o'lka haqida to'liq tasavvurni vujudga keltirish, o'lkadagi e'tiborga molik ob'ektlar tarixini va shu kabilarni bilish bo'lib, bular quyidagi masalalarni o'rganish orqali shakllantiriladi.

Tarixiy yodgorliklar. Bunga insoniyat hayotidagi eng muhim tarixiy voqealar, jamiyatning rivojlanish bosqichlari, inqilobiy harakat bo'lib o'tgan joylar, atoqli sarkardalar, yirik davlat, fan va madaniyat arboblarning nomlari bilan bog'liq voqea joylari, o'tmishdan qolgan qo'lyozma asarlari va shu kabilari kiradi.

Arxeologiya yodgorliklari. Bunga ko'hna shaharlar, qo'rg'onlar, qal'alar, qadimiy manzilgohlar, istehkomlar, korxonalar, kanallar, shuningdek yo'llarning qoldiqlari, dafn joylari, tosh haykallar, qoyadagi tasvirlar va boshqalar kiradi.

Shahar qurilishi va me'morchilik yodgorliklariga me'morchilik ansambllari va komplekslari, tarixiy markazlar, kvartallar, maydonlar, shaharlar va boshqa aholi yashaydigan joylarning qoldiqlari, fuqaro, sanoat, harbiy, diniy, xalq me'morchiligi inshootlari kiradi.<sup>2</sup>

San'at yodgorliklariga monumental, tasviriy, amaliy-dekorativ va boshqa turdagi san'at asarlari kiradi.<sup>3</sup>

Yodgorlik hujjatlari. Bunga markaziy va mahalliy davlat hokimiyati organlari va davlat boshqaruvi organlaridan qolgan turli hujjatlar, boshqa yozma va chizma hujjatlar, kino-foto hujjatlari va tovush yozuvlari, shuningdek qadimiy qo'lyozmalar hamda arxiv materiallari, folklor va musiqa yozuvlari, nodir bosma nashrlar kiradi.

<sup>2</sup> Albert Ondan. Home and Homeland. LS. California. 2015 p-35

<sup>3</sup> Cultural studies and Culturology. Books & Subject. Ottawa-2013/ p-43

Etnografik va toponimik materiallarga xalq urf-odatlarini, moddiy-ma'naviy madaniyat, xalqlarning ertak, folklor, mifologiyasi hamda joy nomlarining ilmiy jihatdan kelib chiqishini o'rganish kiradi.

Yuqoridagi manbalarni o'rganish va umimlashtirish ilmiy o'lkashunoslik tadqiqotchilari, jamoat o'lkashunosligi va havaskorlari uchun ham, u yoki bu voqealarga tavsif berish, turli tarixiy tushunchalarga aniqlik kiritish uchun ham zarurli ma'lumot bo'lib xizmat qiladi.

Har bir o'quvchiga zarur bilimlarni berish, ularni ona-yurt va jahon madaniyati boyliklaridan bahramand qilish, ma'naviy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash umumta'lim maktabining asosiy vazifasidir. O'quvchilarning to'laqonli umumiy ta'lim sohiblari bo'lib yetishishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilishiga ko'p darajada bog'liqdir. O'qitish shakl va usullarining xilma-xilligi, shaxsiy qobiliyat va maylni hisobga olish, unumli mehnatga jalb qilish yoshlarning jamiyat ehtiyojlarini tushunib va hisobga olib kasb hamda ta'limni davom ettirish yo'llarini tanlashlariga yordam berishi lozim. Bu vazifani amalga oshirish o'qituvchidan maktabda ta'lim-tarbiya ishlarining umumiy saviyasini kutarish, o'qish-o'qitishning eng yaxshi shakl va usullarini izlab topish hamda ularni joriy qilishni talab qiladi.

Tarixni o'qitishda o'lkashunoslik materiallardan foydalanish dars mashg'uloti mazmunini boyitibgina qolmay, balki uni maroqli ham qiladi. Jonajon o'lka, uning boy o'tmishi va mavjlanib turgan hozirgi kunini o'rganish o'quvchilarning bilim doirasini kengaytiradi, ularni tabiat va jamiyat xodisalarini mustaqil kuzatishga o'rgatadi, ularda o'z ona-yurti va xalqiga mehr-muhabbat tuyg'ularini kuchaytiradi. O'lkashunoslik materiallari maktab va o'qituvchiga yosh avlodni vatanparvarlik va fidokorona mehnat an'analari ruhida tarbiyalashga yordam beradi. Dars samaradorligini, xususan tarix fanini o'qitish samaradorligini va sifatini oshirishda, dars jarayoni va sinfdan tashqari ishlarda boshqa vositalar qatori o'lkashunoslik materiallaridan foydalanish yangi an'analarga aylanib bormoqda.

### **MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR:**

1. Tarixiy o'lkashunoslikni o'qitishdan maqsadni tushuntiring.
2. O'lkashunoslikda foydalaniladigan manbalarni izohlang.
3. Tarixiy o'lkashunoslik fani vazifalarini ochib bering.
4. Bugungi kunda o'qish va o'qitish samaradorligi va sifatini oshirishda o'lkashunoslik materiallaridan foydalanishning o'rnini baholang.

### **Adabiyotlar:**

1. Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. - T.,1998
2. Nabiev A. Tarixiy o'lkashunoslik. -T.:O'qituvchi, 1996.

## **2-MAVZU: TARIXIY O'LKASHUNOSLIK FANINING RIVOJLANISHI**

### **Asosiy savollar:**

1. 1917 yilga qadar o'lka tarixini o'rganishning ahvoli
2. O'rta Osiyo tarixini o'rganishga rus sharqshunoslarining qo'shgan hissasi
3. Rus sharqshunosligining mahalliy tarixchilikka ta'siri

### **Tayanch tushuncha va iboralar:**

Rus sharqshunoslari, o'lkashunoslik to'garaklari, mahalliy o'lkashunoslar, o'lkashunoslik fani

1-asosiy savol bayoni:

Rus olimi M.V.Lomonosov o'z o'lkasini mukammal o'rganish maqsadida 1761 yili 30 savoldan iborat javob varakasi tuzib, aholi o'rtasida tarqatgan edi. Ayni vaqtda bu bilan o'lkashunoslik faniga asos solingandi. O'lkani o'rganish masalasi O'rta Osiyo, shu jumladan O'zbekiston hududida Rossiyadan anchagina keyinroq, ya'ni XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlanadi.

Rus olimlari O`rta Osiyoning chorizm tarafidan bosib olinishidan ancha ilgari bu o`lkani o`rganish bo`yicha bir qancha ishlar qilgan edilar. Biroq, XIX asrning birinchi yarmidagi o`lkani o`rganish, ya'ni mahalliy tarixchilik ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotidagi biqlikka mos bo`lib, feodal tuzum manfaatlari uchun xizmat qilar edi. Tarix fanidan feodal sinfining manfaatlari, xonlar va ular sulolasining taxtga egaligi va "odilligi"ni mafko`raviy jihatdan asoslash uchun foydalanib kelindi. Saroy tarixchilari o`zlarining asosiy e'tiborlarini siyosiy voqeliklarni xonlarning faoliyati va o`z raqiblari ustidan qozongan galabalarini ko`klarga ko`tarib maktash, saroydagi an'analarni tasvirlashga karatdilar. Chunki zamon shunday edi. Natijada bu davr tarixchiligining mavzui jahon tarixchiligi mavzusidan bir qadar ajralib qoldi. X-XV asrlardagi mahalliy tarixchilar Muhammad Narshaxiy, Tabariy, Rashiddiddin, Nizomiddin Shomiy, Abulg'ozixon va boshqalarning asarlari o`zining mazmundorligi, faktik materialga boyligi bilan bu davrda yozilgan tarixiy asarlardan sezilarli darajada ajralib turadi. Sharqshunos A.A.Romaskevich Rashiddiddinning "Jome ut-tavorix" nomli asari ustida so`z yuritir ekan, haqli ravishda bu asar o`zining mazmuni va hajmi jihatidan muhimligini ko`rsatib, biz bu asardan keyin Eron tarixchiligida voqealarni bu xilda bayon qilish uchun bo`lgan intilishni ko`rmaymiz, deb yozgan edi. Bu O`rta Osiyo tarixchiligiga ham xos narsa edi.

XIX asr 30-yillarida Buxoro saroy tarixchisi Muhammad Yokub yozgan "Gulshan ul-muluk" nomli asar o`sha davr tarixiy manbalaridan biri hisoblanadi. Bu asar fors-tojik tilida yozilgan bo`lib, unda qadimgi zamonlardan to XIX asrning 30-yillarigacha bo`lgan Buxoro amirligidagi siyosiy voqealar bayoni beriladi. Asarda saroy voqeliklari, hukmron sinflar tarixi, o`zaro urushlar, unda erishilgan galabalar, xonlikning keyingi sulolasining genealogiyasi ifodalanib, jamiyatning rivojlanishida asosiy kuch bo`lgan xalq ommasining ahvoli, uning tilak-orzulari, xalq harakatlari va bu harakatning tub mohiyatini yoritishga bo`lgan intilishni deyarli ko`rmaymiz.

Yana o`sha davrda fors-tojik tilida yozilgan ikkinchi manba Buxoro saroy tarixchisi Muhammad Mir Olimning "Tarixi amir Nasrullo" nomli asaridir. Bu asar Buxoro amiri Nasrulloning (1826-1860) topshirigi bilan yozilgan. Asar XVIII asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligida yuz bergan siyosiy voqealarni, ichki va tashqi voqeliklarni tasvirlash bilan boshlanib, amir Nasrulloning hokimiyatga kelishi, uning dastlabki yillardagi davlatni boshqarishda to`tgan siyosati bilan tugallanadi. Asarda Buxoro amirligidagi 1821-1825 yillarda bo`lib o`tgan xitoy-qipchoqlar qo`zg`oloni va uning bostirilishi haqida so`zlanadi. Ammo asarda qo`zg`olonning asosiy sabablari va mohiyati ochib berilmagan, bu tabiiy hol bo`lib, saroy tarixchisidan buni kutish mumkin emas edi.

Yana shu yo`nalishda yozilgan tarixiy manbalardan biri mulla Ibodulla va mulla Ahmad Shariflar tomonidan fors-tojik tilida yaratilgan "Tarixi amir Haydar" nomli asardir. Asarda Ashtarxoniylar bilan mang`itlar sulolasi tarixi, amir Haydarning otasi amir Shohmurodning tug`ilishidan boshlab to amir Haydarning o`limi (1826) gacha Buxoro amirligida bo`lib o`tgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy voqealarga to`xtalib o`tilgan. Asarda 1820 yilda A.F.Negri boshlik Rossiyadan Buxoroga yuborilgan elchilik tashrifi to`g`risida ham ma'lumot berilgan.

Muhammad Sharifning xuddi o`sha davrni aks ettiruvchi "Toj ut-tavorix" ("Tarixlar toji") nomli asarida mang`itlar nasabnomasi, turkiy va mug`ul qabilalari, Chingizxon, uning avlod-ajdodlari, shayboniylar, ashtarxoniylar sulolasining tarixi beriladi. Umuman asar ashtarxoniylar, ayniqsa mang`itlar sulolasi vaqtida Buxoro amirligidagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy voqeliklarni o`rganishda muhim rol o`ynaydi.

XIX asrning 40-yillarida yozilgan yirik tarixiy manbalardan biri Muhammad Hakimxon To`raning "Muntahab at-tavorix" nomli asaridir. Asarda XVIII asrning 70-yillaridan to Qo`qon xoni Umarxonning vafoti (1822), undan so`ng taxtga o`tirgan Madalixongacha bo`lgan davrdagi Qo`qon xonligi tarixiga doir siyosiy voqealar tasvirlangan. Hakimxon to`ra xon bilan birga yurib, XIX asrning birinchi choragidagi voqealarga aralashadi. U saroydagi fisq-fujur, viloyatlardagi siyosiy tortishuvlar, xonlikning tashki va ichki siyosatini, Buxoro amirligidagi siyosiy xodisalarni o`z ko`zi bilan ko`rib, ularni o`z asarida aks ettirgan. Ashtarxoniylardan so`ng taxtga o`tirgan o`zbeklarning ming sulolasi haqida, Umarxonning hukmronlik qilgan (1810-1822) vaqtdagi siyosiy voqealar aniq



va izchillik bilan ifodalangan. Asarning qimmati shundaki, Rossiyaning O`rta Osiyoga nisbatan to`tgan siyosati va o`sha vaqtdan O`rta Osiyoliklarning Rossiyaga bergan bahosini aniqlashda u muhim o`rin tutadi, chunki muallif Rossiyada bo`lib, u yerdagi hayot bilan bevosita tanishgan, Rossiya bilan bog`lanish masalasida ilg`or fikrlarni bayon qilgan. Muallif o`z asarida 1821-1825 yillarda Buxoroda bo`lib o`tgan xitoy qipchoqlar qo`zg`olonida qatnashganlarni "xoin kishilar" deb qoralaydi.

Qo`qon xonligi tarixiga oid manbalardan biri Avaz Muhammadning fors-tojik tilida yozilgan "Tarixi jahonnomai" asari bo`lib, o`z ko`zi bilan ko`rganlarining bayoni hamda tarixiy manbalar asosida yozilgan ikki kitob va geografik qo`shimchadan iborat. Asarning birinchi qismida insonning paydo bo`lishidan boshlab, to XVI asrgacha bo`lgan hukmdorlar tarixi berilgan. Asarning ikkinchi qismida Qo`qon xoni Olimxon (1798-1810) va Umarxon (1810-1822) hukmronligi davri siyosati to`liq berilgan. Asarda Buxoro amirining xitoy-qipchoqlar va qoraqalpoq xalqlariga nisbatan to`tgan siyosati, Qo`qon xonligi bilan Buxoro amirligi o`rtasidagi munosabatlar, rus askarlari tomonidan Samarqand va Kattaqo`rg`on yerlarining bosib olinishi, yo`l va imoratlar qurilishi, ayrim voqealarning sanalari va hk.lar berilgan. Shu bilan birga asarda 1842 yili Qo`qonda ko`tarilgan xo`ja Qalandar qo`zg`oloni, 1847 yilda Toshkent hokimiga qarshi ko`tarilgan harakat kabi muhim voqealar aksini topgan. Keltirilgan dalillar tarixni o`rganish uchun muhimdir.<sup>4</sup>

Qo`qon xonligi tarixchiligidagi Mulla Niyoz Muhammadning "Tarixi Shoxruhiy" degan asari ham diqqatga sazovordir. Muallifning bu asari Qo`qon xonligining XVIII va XIX asr 70-yillarigacha bo`lgan tarixiga oid muhim ma'lumot beradi.

Toshkentlik Muhammad Solih Qoraxo`ja o`g`lining 1880-1885 yillar orasida yozgan "Tarixi jadida-i Toshkand" (Toshkentning yangi tarixi) asari O`rta Osiyoda o`tgan uch xonlikda yozilgan tarixiy asarlardan birmuncha farq qiladi. Asar fors tojik tilida yozilgan. U hukmdorlar o`rtasidagi urushlar tarixidan iborat bo`lib, ikkinchi qismi Qo`qon xonligi va Toshkent tarixiga bag`ishlangan. Bunda Muallifning yangicha tarix yozish niyatida ish boshlagani va A.Kundan maslahat olganligi seziladi. Asarda Qo`qonning siyosiy hayotida ustunlik rolini o`ynagan guruh va shaxslar, Toshkentda bo`lib o`tgan siyosiy harakatlar, xalq qo`zg`olonlari, ularning yo`nalishi va sabablari haqida ma'lumotlar berilgan.

Xiva xonligida yozilgan tarixiy manbalardan eng muhimi Munis va Ogahiy asarlari hisoblanadi. Munis Xiva xoni Eltuzarxon topshirigi bilan "Firdavs ul-iqbol" nomli mashxur tarixiy asarini yozadi. Asar o`zbek tilida yozilgan. U Xiva xonligining XVI-XVII asrlardagi tarixini yoritishda Abulg`ozining asarlaridan foydalanadi. XVIII asr tarixiga oid voqealarni esa o`z ko`zi bilan ko`rgan kishilar va otasining bergan ma'lumotlari asosida yozadi. Keyin xon tomonidan unga Mirxondning "Ravzat us-safo" asarini tarjima qilish vazifasi topshirilib, Xiva xonligining XVIII asr 2 yarmidagi eng muhim voqealari yozilmay qoladi. Munis tarjimini ham, o`z asarini ham tamomlay olmasdan vafot etadi. Muhammad Rizo Ogahiy (1809-1864) Xiva xoni Olloquli (1825-1842)ning topshirig`i bilan asarni davom ettirib, 1827 yillargacha bo`lgan voqealarni yozadi. So`ngra u 1826-1842 yillardagi voqealar yoritilgan "Riyoz ud-davla", 1842-1845 yillardagi tarixiy voqealar yoritilgan "Zubdat ut-tavorix", 1846-1855 yillardagi voqealar yoritilgan "Jomiul voqeoti sultoniy", 1856-1865 yillardagi voqealar yoritilgan "Gulshan davlat" nomli asarlarni yozadi. Ogahiy "Shohidi Iqbol" nomli beshinchi asarini Xiva xoni Muhammad Rahimxon davriga (1865-1910) bag`ishlaydi. Bu asar 1872 yil voqealari bilan tugaydi.

V.V.Bartoldning yozishicha: "Munis va Ogahiyning kitoblari adabiy va tarixiy asar sifatida kamchiliklarga qaramay, bayon qilishning to`liqligi va daliliy ma'lumotlarning soni jihatidan bizgacha yetib kelgan Buxoro va Qo`qon xonliklari tarixi bo`yicha bitilgan asarlarni orqada qoldiradi".

Xulosa qilib aytganda, XIX asrning birinchi yarmida mahalliy tarixchilar tomonidan yaratilgan tarixiy asarlar mamlakatning xo`jaligi, iqtisodiy munosabatlar, sinfiy kurash, xalq harakatlari va siyosiy voqealarning ijtimoiy-iqtisodiy ildizlarini ochib bera olmagan bo`lsa ham, tarixchilarimiz o`lkani o`rganishda, solnomalar tuzishda, etnografik va toponimik materiallar

<sup>4</sup> Абашин С. История Кокандского Ханства. М-2013 стр-56

to'plashda bu nodir asarlardan, tanqidiy nuqtai nazardan qarab foydalanishlari mumkin. Bu asarlar shuning uchun ham 1917 yilga qadar o'lkani o'rganishda juda qo'l keladi. Chunki ularning mualliflari bevosita o'sha davrda yashagan, ro'y berayotgan voqea va xodisalarni o'z ko'zlari bilan ko'rgan, shuningdek ularni oldingi davr voqealari bilan kiyoslagan.

### **MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR:**

1. Xonliklar tarixini yorituvchi asarlarni ko'rsating:

- A) Qo'qon xonligi
- B) Buxoro amirligi
- C) Xiva xonligi
  - 1) Gulshan davlat
  - 2) Tarixi jadida-i Toshkand
  - 3) Zubdat ut-tavorix
  - 4) Toj ut-tavorix
  - 5) Tarixi amir Nasrullo
  - 6) Gulshan ul-muluk
  - 7) Tarixi Shohruhiy
  - 8) Firdavs ul-iqbol
  - 9) Jome ut-tavorix
  - 10) Riyoz ud-davla
  - 11) Muntahab ut-tavorix
  - 12) Shohidi Iqbol

2. Avaz Muhammadning "Tarixi jahonnomai" asarida qanday ma'lumotlarni topish mumkinligi ko'rsating

- A. Mang'itlar nasabnomasi, turkiy va mo'g'ul qabilalari, Chingizxon va uning avlodlari, shayboniylar sulolasi tarixi
- B. Insonning paydo bo'lishidan boshlab to XVI asrgacha hukmdorlar tarixi, Qo'qon xonligi va Buxoro amirligining XIX asr boshlaridagi tarixi yoritilgan
- C. Xiva xonligining XVI-XVII asrlaridagi tarixi
- D. Qo'qon xonligining XVIII va XIX asr 70-yillarigacha bo'lgan tarixi
- E. Buxoro amirligidagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti tasvirlangan

3. 1917 yilga qadar yozilgan mahalliy tarixchilarning asarlari o'lkashunoslikni o'rganishda qanday ahamiyatga ega ekanligini ochib bering.

4. Muhammad Solih Qoraxo'ja o'g'lining asari boshqa tarixchilar asarlaridan farq qiluvchi tomonlarini izohlang.

### **2-asosiy savol bayoni:**

XIX asrning 2 yarmida O'rta Osiyo chor Rossiyasi tarafidan bosib olingach, bu yerga rus olimlari kelib, ko'plab tadqiqot ishlarini olib bordilar. O'rta Osiyoning durustroq o'rganilmaganligi mustamlaka ma'muriyatining ishlarini qiyinlashtirdi. Tabiiy boyliklari, madaniy merosi g'oyat boy bo'lgan va kam tekshirilgan bu o'lkani rus ziyolilarining taraqqiyparvar qismini juda qiziqtirardi. N.A. Severtsov Turkistonning ko'p joylarini fizik-geografik jihatdan o'rganib, zoologiya, botanika, mineralogiya va paleontologiyaga oid juda qimmatli kolleksiyalar to'pladi. P.P. Semyonov-Tyan-Shanskiy O'rta Osiyo, ayniqsa Tyanshan tizma tog'larining geografik o'rganilishiga asos soldi. A.P. Fedchenko Turkiston tabiatini o'rganishda katta rol o'ynadi.

Geolog va geograf I.V. Mushketov Turkistondagi ko'pgina foydali qazilma konlarini ta'riflab, Turkiston minerrallarining dastlabki ro'yxatini tuzib chiqdi, Turkistonning birinchi geologiya xaritasini tuzdi. Harbiy topograflar tomonidan O'rta Osiyoning bosh xaritasini tuzish

ishlari boshlab yuborildi. 1867 yilda Toshkentda meteorologik markaz tuzildi, keyin boshqa yerlarda ham vujudga keldi. Toshkentda 1874 yili Pulkovo rasadxonasi xodimlarining yordami bilan rasadxona ochildi.

O'lkani o'rganishda statistika qo'mitalari ham muhim rol o'ynadi. 1868 yil yanvarda Turkiston statistika qo'mitasi tuzildi. Uning tashabbusi bilan 1872 yildan "Turkiston o'lkasi statistikasi uchun materiallar" nomli to'plami chiqarila boshlandi. So'ngra viloyatlarda ham statistika qo'mitalari tuzildi. Qo'mitalar viloyatlarga xos obzorlar nashr qilib, ularda "tabiiy va ishlab chiqarish ishlari", xalq xo'jaligi, sug'orish tizimlari, yo'llar, aholi va uning mashg'uloti, ulpon va soliqlar, ma'muriy tuzilish, sog'likni saqlash, maorif, ob-havo va hokozolar haqida ma'lumotlar berildi.

O'rta Osiyo xalqlarining turmushiga bag'ishlangan, ilmiy va o'lkashunoslikka doir turli xabarlar va maqolalar "Turkestanskiye vedomosti" hamda "Turkiston viloyatining gazetisi" va boshqa mahalliy matbuotda muntazam bosilib turdi.

1870 yilda Toshkentda ochilgan Turkiston xalq kutubxonasi (hozirgi kunda A.Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi) o'lkani o'rganish bilan shug'ullanuvchi barcha tadqiqotchilar, ayniqsa mahalliy xodimlar uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi. Kutubxona tashabbuskor bibliofillar va bibliograflarning faoliyati asosida o'lkani o'rganishga doir qimmatli asar va materiallar bilan boyib bordi. Ochilishi vaqtida faqat 1700 jild kitob bor edi, 1917 yilga kelib kitoblar soni 80 ming jildga etdi. Kutubxona fondida saqlanayotgan adabiyot va manba majmualaridan O'rta Osiyoga, ayniqsa Turkiston o'lkasiga taalluqli "Turkiston" asarlar va maqolalar to'plami juda ham qimmatli asar bo'lib, shu kunlarda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Bu to'plamni tuzish ishlarini rus bibliografi V.I.Mejov Peterburgda 1868 yildan boshlab 20 yil davomida olib borgan edi. 1888 yilda "Turkiston to'plami"ga kirgan katta-katta jildlarning soni 416ga yetganda chor ma'muriyatining buyrug'i bilan bu ishlar to'xtatilgan edi.

1872 yilda A.L.Kun va boshqa sharqshunoslar mashhur "Turkiston albomi"ni tuzib tamomladilar. 1917 yilga qadar o'lkadagi ilmiy jamiyatlar tomonidan protokol, axborotnoma hamda asarlar va boshqalar bosib chiqarilgan.

Turkistonning yodgorliklari ko'pdan buyon olimlarning diqqatini o'ziga jalb qilib kelardi. XIX asr davomida osori atikalar ustida O'lkashunoslik kuzatishlar, qidiruv ishlari olib borildi. Bu sohadagi ishlar P.I.Lerx, N.I.Vesyolovskiy, V.A.Jukovskiy, V.V.Bartold va mahalliy turkistonshunoslardan M.S.Andreyev, V.L.Vyatkin, A.L.Kun, A.A.Semyonov va boshqalarning nomlari bilan bog'liqdir. Sobiq Turkistonning qadimiy yodgorliklarini hisobga olish va tekshirishga markazdagi ilmiy muassasalar: imperator arxeologiya komissiyasi, Rus arxeologiya jamiyatining Sharq bo'limi, 1903 yil aprelida tashkil qilingan O'rta va Sharqiy Osiyoni tarixiy, O'lkashunoslik, lingvistik va etnografik jihatdan o'rganish qo'mitasi ham e'tibor berdi. Rus havaskor kollektiyachilari: Barshchevskiy, Vyatkin, Dobrosmislov, Kastalskiy, Komarov, Petrov-Borzna, Poslavskiy, Stolyarov, Terentyev, Trofimov va boshqalarning to'plagan ma'lumotlari mashhur edi.

Arxeologiya yig'malari 1871, 1874, 1889 yillarda Toshkent, Samarqand va Farg'onada ochilgan muzeylarida saqlandi. Qadimgi me'morchilik yodgorliklaridan asosan Samarqand yodgorliklari o'rganildi. 1895 yilda N.I.Vesyolovskiy rahbarligi ostida va me'mor A.V.Shchusev va boshqa mutaxassislar ishtirokida Imperator arxeologiya komissiyasi Go'ri Amirni me'morchilik, dekoratsiya nuqtai nazaridan o'rganish uchun ilmiy safar uyushtirdi. Bu safar natijalari 1905 yilda albom holida nashr etildi.

O'lkani etnografik jihatdan o'rganish ishlarida sharqshunos mutaxassislar bilan bir qatorda havaskor o'lkashunoslar va mansabdorlar, harbiylar orasidan chiqqanlar ham qatnashdilar. Ular Turkiston o'lkasi idora organlaridagi xizmatlarining bergan imkoniyatidan foydalanib, xalq turmushini o'rgandilar, turli joylarga borib mahalliy aholi bilan aloqa bog'ladilar.

V.V.Bartold, N.I.Vesyolovskiy, V.V.Radlov, A.N.Samoylovich singari sharqshunoslarning ayrim asarlari etnografiya nuqtai nazaridan katta ahamiyatga egadir. O'zbek xalqining turmushi va maishiy buyumlari (kiyim bosh, zeb-ziynat, qurol-yarog', uy-ro'zg'or buyumlari, ishlab chiqarish

qurollari) dan kolleksiya to'plash ishlari ham olib borildi. Xalq xo'jaligini o'rganish sohasida, O'zbekiston aholisini o'rganish sohasida, O'rta Osiyo gilamlari haqida asarlar bosilib chikdi.<sup>5</sup>

O'lkani o'rganishda zarur talablar va vazifalarni xal qilish uchun mablag kerak edi. Biroq o'lkada davlat ilmiy-tekshirish muassasalari deyarli yo'q edi. Bu o'lkada ilmiy jamiyatlar tuza boshlashga undadi. Ilmiy jamiyatlarning paydo bo'lishi bu yerda mahalliy turkistonshunos xodimlar paydo bo'lganligidan va ularning ishlarini o'zaro muvofiqlashtirish zarurligidan dalolat berardi.

Qisqa muddat ichida Turkiston ilmiy jamiyatlari o'lkani o'rganish tarixida mustahkam o'rin oldilar. Bulardan ba'zi birlari faqat mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan jamiyatlar (O'rta Osiyo olimlar jamiyati, ilmiy-tibbiyot jamiyati) bo'lsa, boshqalari Umumrossiya jamiyatlarining bo'limlari (Rus geografiya jamiyati, Rus texnika jamiyatining hamda tibbiyot, arxeologiya, antropologiya va etnografiya havaskorlari jamiyatining Turkiston bo'limlari) edi. 1870 yilda O'rta Osiyo olimlari jamiyati paydo bo'ldi, u o'z oldiga O'rta Osiyo tarixi, geografiyasi, etnografiyasi, statistikasi, iqtisodiyotiga oid ma'lumotlarni to'plash, ishlash va tarqatishni maqsad qilib qo'ydi. A.P.Fedchenkoning faol ishtiroki bilan tabiiyot, arxeologiya, antropologiya va etnografiya havaskorlari jamiyatining Turkiston bo'limi ochildi. Mablag yo'qligi tufayli bo'lim 1893 yilda o'z faoliyatini to'xtatishga majbur bo'ldi.

O'lkada ishlab turgan arxeologlar 1895 yilda Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garagiga birlashdi. Arxeologiya ishlari asosan yozuv manbalariga qarab qadimgi zamon yodgorliklarini o'rganishdan, ayrim manzillarni tekshirib aniqlashdan iborat bo'ldi. Ahyon-ahyonda O'lkashunoslik qazishlar o'tkazilardi. To'garak a'zolari tomonidan Farg'ona tog tizmalaridagi Soymalitosh degan joyda toshga o'yib solingan juda ko'p suratlarning topilishi, mashhur Biyanayman ossuariylari va hokazolarning ochilishi fan solnomalariga juda ham muhim ilmiy kashfiyotlar bo'lib kirdi. To'garak ishlariga V.V.Bartold katta yordam ko'rsatdi. O'lkada hammasi bo'lib 15ga yaqin ilmiy jamiyat ish olib bordi (faol ish olib borib, fanda iz qoldirgan ilmiy jamiyatlar nazarda tutiladi). Ular geologiya, geografiya, zoologiya, botanika, iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi, tarix, sharqshunoslik, arxeologiya, etnografiya, antropologiya, ilmiy tibbiyot kabi bilim tarmoqlari va yordamchi ilmiy fanlar sohasida tadqiqot ishlarini olib borganlar.

XX asr boshlarida ham Turkistondagi ilmiy jamiyatlar o'z faoliyatini davom ettirdi. Rus geografiya jamiyatining Turkiston bo'limi o'lkani tabiiy-geografik, tabiiy-tarixiy jihatdan o'rganish borasida katta ishlar qildi. 1908 yilda L.S.Bergning "Orol dengizi" monografiyasi bosildi. Turkiston muzliklarini o'rganish borasida G.B.Leonov, N.L.Korjnevskiy, V.G.Gorodetskiylar tadqiq qildilar. V.F.Oshanin o'lkani hayvonot dunyosini, N.A.Zarudniy parrandalarini, B.A.Fedchenko va O.A.Fedchenkolar o'lkani o'simlik dunyosini tadqiq qilishdi. Tadqiqotlar natijasida chop etilgan asarlarda o'simlik va hayvonot dunyosining 80 xil yangi urug va turlarini ta'riflovchi ma'lumotlar e'lon qilindi.

1907 yilda bibliograf I.V.Dmitrovskiy rahbarligi ostida "Turkiston to'plami"ni tuzish ishlari boshlandi. 1917 yilga qadar to'plam jildlari 394ga yetkazilgan edi. Hozir bu to'plam Alisher Navoiy nomli O'zbek davlat xalq kutubxonasida saqlanadi. Bu to'plamda O'rta Osiyo va unga qo'shni bo'lgan Sharq mamlakatlarining tarixi, arxeologiyasi, etnografiyasi, adabiyoti, iqtisodiyoti, madaniyat tarixi va boshqa masalalariga oid keng ma'lumotlar bor.

O'rta Osiyo tarixi va arxeologiyasi XX asr boshlarida chuqurroq tekshirila boshlandi. Bunda mashhur sharqshunos olim, akademik V.V.Bartold (1869-1930) rahbarlik o'rnida turgan edi. U sharq tillarini yaxshi bilgani uchun, butun "musulmonlar Sharqi" tarixiga oid juda ko'p birinchi manbalarni puxta o'rganish imkoniyatiga ega bo'ldi. Uning "Turkiston mo'g'ullar xuruji davrida" (1898-1900), "Ulug'bek va uning zamoni", "Turkistonning sug'orish tarixiga doir" nomli asarlari va boshqa ko'p kitob, maqola, tadqiqot va mulohazalari g'oyat qimmatli va o'z ahamiyatini yo'qotmagan ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan. Polkovnik A.G.Serebrennikov to'plagan O'rta Osiyoni zabt etish tarixiga oid 70ta jilddan iborat ma'lumotlar O'rta Osiyoning 1839 yildan 1876 yilgacha o'tgan davr tarixini o'rganishda ma'lum darajada qiziqarli manbadir.

<sup>5</sup> Русские Востоковеды. Сборник. Москва-Ст.Петербург. Изд «Прима».-2009г. Стр-188.

V.L.Vyatkin 1908 yilda Samarqanddagi Ulug`bek rasadxonasining qoldiqlarini ochdi, Samarqand yodgorliklarini o`rganish va saqlash bilan shug`ullandi, qadimgi Afrosiyob qo`rg`oni va uning atroflarini tadqiq qildi.

V.V.Bartold taklifi bilan 1895 yil oktyabrda Turkiston arxeologiya havaskorlari to`garagi va uning nizomi tasdiqlandi. To`garak o`lkadagi qadimgi yodgorliklarni o`rganish, ularni saqlash, yodgorliklarni qazish va O`lkashunoslik materiallarni nashrga tayyorlash kabi ishlarni bajaradi deyilgan edi. To`garak a'zolari jiddiy ilmiy-tekshirish ishlarini jonlantirib yuborgan edilar va O`rta Osiyo tarixi va qadimgi yodgorliklariga hurmat bilan qaraganliklarini tan olishimiz kerakdir.

### **MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR:**

1. Turkiston xalq kutubxonasi qachon va qaerda ochilganini ko`rsating

- A. 1870 yili Toshkentda
- B. 1887 yili Samarqandda
- C. 1884 yili Farg`onada
- D. 1917 yili Toshkentda
- E. 1889 yili Marg`ilonda

2. XIX asr davomida Turkistonda osori-atikalar ustida O`lkashunoslik kuzatishlar, qidiruv ishlari olib borgan olimlarni sanab bering.

3. Voqeliklarni xronologik tartibda joylashtiring:

- A. Toshkenta statistika qo`mitasi tuzildi
- B. Turkiston arxeologiya havaskorlari to`garagi tashkil topdi
- C. "Turkiston albomi" tuzildi
- D. O`rta Osiyo olimlari jamiyati vujudga keldi
- E. Go`ri Amirni o`rganish uchun ilmiy safar uyushtirildi

4. V.V.Bartoldning ijodiy faoliyatini sharhlab bering.

5. Ulug`bek rasadxonasi qoldiqlarini kim va qaysi yilda ochdi?

- A. V.F.Oshanin 1878 yilda
- B. A.P.Fedchenko 1893 yilda
- C. V.L.Vyatkin 1908 yilda
- D. V.V.Bartold 1900 yilda
- E. A.G.Serebrennikov 1898 yilda

### **3-asosiy savol bayoni:**

Ilmiy jamiyatlar huzurida faol o`lkashunoslar, mahalliy muxbirlar paydo bo`ldi. XIX asr 80-90 yillaridayoq Turkistonda ko`proq rus tadqiqotchilari, kollektsiyachilari va ilmiy jamiyatlarning ta'siri ostida osori atika havaskorlari, qadimgi yodgorliklarni to`playdigan havaskorlar yetishib chiqdi. Bular orasida Samarqandlik Mirzo Buxoriy, Mirzo Abdulloning nomi alohida ajralib turadi. Mirzo Buxoriy juda ko`p O`lkashunoslik numizmatik kollektsiyalar to`plagan bo`lib, bularning bir qismi Ermitaj kollektsiyalariga kirgan. Ajoyib san'atkor-hattot Mirzo Barot Mullo Qosimov Samarqand va uning atroflaridagi ko`p qadimgi zamon yodgorliklari suratini chizgan. Ulug`bek madrasasining g`oyat aniq eskizini tayyorlagan edi.

A.L.Kunning Iskandarko`l ilmiy safarida qatnashgan Mirzo Abdullo Abdurahmon fanga qadimgi toshlarga va qabr toshlariga yozilgan xatlar qayd qilingan ajoyib kundalik daftar qoldirib ketgan. Buxoroda qadimgi gilamlar, qo`lyozmalar, nodir sopol idishlar to`plagan Muhammad Vafo tez orada mashhur bo`lib ketdi. Havaskor geograflardan Olimxuja Yunusov, Mirza Hakim va boshqalar Rus geografiya jamiyati Turkiston bo`limining xodimlari bo`lib ishladi.

Rus sharqshunosligi o'zining g'oyat katta ilmiy faoliyati bilan mahalliy tarixchilikka shubhasiz katta ta'sir ko'rsatdi. Rus sharqshunoslari O'rta Osiyo tarixi yuzasidan jiddiy tadqiqot ishlari olib borish bilan birga, bu ishga yerli tarixchi havaskorlarni ham jalb qilish, ular bilan hamkorlikda ish olib borishga harakat qildi. Rus sharqshunoslari mahalliy tarixchi va havaskorlar o'rtasida yurib va yashab, O'rta Osiyo tarixi haqida muhim ma'lumotlar va asarlarni to'pladilar, shu hakda tushuntirish ishlari olib bordilar. Toshkentlik tarixchi Muhammad Solih Qoraxo'ja o'g'li o'zining "Tarixi jadida-i Toshkand" degan asarida Iskandar to'ra ismli bir rus olimining uyiga kelgani, u bilan suhbatlashgani va O'rta Osiyo tarixiga oid ko'p savollar berib, bahslashgani haqida yozadi. Iskandar to'ra aslida Aleksandr Kun bo'lgan. Boshqa sharqshunoslarning ham xalq orasida yurib, tarixga oid savollar berishi, ayrim masalalar yuzasidan bahslashishlari, yerli xalqlar o'rtasida tarixga qiziqish hissini oshirdi. Bunday bahslashuvlar, savol-javoblar mahalliy xalq o'rtasida "diniy tus berilgan" O'lkashunoslik yodgorliklar va tarixiy xodisalarni aniqlashga, ularning sirini ochishga yordam berdi.

O'sha vaqtda nashr qilingan "Turkiston viloyatining gazetasi", "Turkestanskiye vedomosti" va boshqa gazetalar sahifalaridagi mahalliy tarixchi va havaskorlar tomonidan yozilgan yodnomalar, yodgorliklar haqidagi xabarlar va maqolalar, O'lkashunoslik kolleksiyalar rus sharqshunoslarining mahalliy tarixchilikka samarali ta'sir ko'rsatganligi va mahalliy xalq orasida tarixga qiziqish avj olganini ko'rsatadi.

Sattorxon Abdug'afforov ham rus sharqshunosligining bevosita ta'siri ostida tarixchilar qatoridan o'rin olgan. U 1876 yilda Peterburgda chaqirilgan III xalqaro sharqshunoslar s'ezdiga A.Kun, Jo'rabek, toshkentlik Muhammadqulov, Abdulla Niyozov va buxorolik Musajon Saidjonovlar bilan birga Turkiston vakili bo'lib qatnashdi. U rus tilida "Rossiyaning istilosiga qadar Qo'qon xonligi ichki ahvoli haqida qisqacha ocherk" asarini yozib, "Turkestanskiye vedomosti" gazetasi 1892 №№26, 36 va 1893 yil №61 sonlarida bostirdi. Asarda Qo'qon xonligining ma'muriy bo'linishi, boshqaruv idoralari, shahar va qishloqdagi amaldorlar, ularning huquqlari, hokim va beklarning siyosati, qo'shinning tuzilishi, qo'zg'olonlar, Qo'qon xonligining chor Rossiyasi tarafidan bosib olinishi kabi masalalar yoritilgan.

N.I.Vesyolovskiy rahbarligida Akrom polvon Asqarov kabi havaskor tarixchi va arxeologlar etishib chiqdi. Sharqshunoslar ta'sirida u Turkistondagi yodgorliklarga qiziqib qoladi. Akrom Asqarov 1884 yilda arxeologiyaga oid qazish ishlari o'tkazish maqsadida prof. N.I.Vesyolovskiy yordamchisi sifatida Buxoro, Farg'ona vodiysi va boshqa joylarda O'lkashunoslik tadqiqotlarda qatnashadi. U mahalliy xalq orasidan yetishib chiqqan birdan-bir fan arbobi - amaliyotchi sifatida tanildi. N.I.Vesyolovskiy Turkistondan ketganidan keyin A.Asqarov bir necha yil mustaqil ravishda O'lkashunoslik tadqiqotlar olib bordi. Biroq u o'z faoliyati haqida matbuotda hech narsa yozmagan edi. Akrom Asqarov 1891 yili vafot etgach, uning boy arxeologiyaga doir ashyolar to'plami Peterburgga olib ketildi va hozir ham Ermitajda saqlanmoqda. "Turkestanskiye vedomosti" gazetasining 1892 yil 31-sonida bosilgan prof.Evarnitskiyning "Akrom Asqarovning arxeologiyaga oid ashyolar to'plami" nomli maqolasida berilgan ma'lumotga ko'ra, 17 dona oltin pul, 1370 dona kumush pul, 13 274 dona mis pul, neolit davriga oid tosh bolg'a, jezdan yasalgan plug, jez oyna, motiga, sopoldan yasalgan odam haykallari, bir bo'lak nefrit, isirg'a, krest (but), baldoq va shunga o'xshash tarixiy buyumlar bo'lgan. A.Asqarov arxeologiya sohasidagi xizmatlari uchun Rossiya arxeologiya jamiyati tomonidan 1887 yilda kumush medal bilan mukofotlangan edi.<sup>6</sup>

O'rta Osiyo, shu jumladan Qo'qon xonligi, Namangan va Toshkentda yashagan o'zbek xalqining tarixi, tili va urf-odatlarini o'rganishda V.P.Nalivkinning hissasi kattadir. U rus olimlari ichida birinchi bo'lib mahalliy tillarni o'rganib, mahalliy tarixchilar qo'lyozma asarlarini o'rgangan va shular asosida "Qo'qon xonligining qisqacha tarixi", "Ruscha-sartcha va sartcha-ruscha lug'at" hamda "Intixob ut-tavorix mamlakati Rusiya" (Rossiyaning qisqacha tarixi) kitoblarini va 40dan ortiq ilmiy asarlar, maqolalar yozgan. Yerli xalqlar uni Jahongir to'ra deb ataganlar, u ham bir necha asarini Jahongir to'ra nomi bilan chop etgan.

<sup>6</sup> Русские Востоковеды. Сборник. Москва-Ст.Петербург. Изд «Прима».-2009г. Стр-194.

Shunday qilib, XX asr 20-yillariga qadar olimlar va sharqshunos havaskorlarning kuchlari bilan O'zbekiston o'lkasini o'rganishga doir anchagina materiallar to'plangan. Biroq ular orasida uzoq-yuluq va tasodifiy materiallar anchagina bo'lib, keng, ilmiy asosda umumlashtirilmagan edi.

#### **MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR:**

1. Mahalliy tarixchi va havaskorlarga ayniqsa kuchli ta'sir ko'rsatgan rus sharqshunoslarini ko'rsating.
  - A. A.G.Serebrenikov, A.P.Fedchenko
  - B. A.Kun, N.Vesyolovskiy
  - C. V.L.Vyatkin, V.F.Oshanin
  - D. V.V.Bartold, S.M.Solovyov
  - E. B.A.Fedchenko, L.S.Berg
2. XIX asr 80-90 yillarda yetishib chiqqan mahalliy arxeolog va tarixchi havaskorlarni sanab bering.
3. Sattorxon Abdug'afforov faoliyatiga baho bering.
4. Rossiya O'lkashunoslik jamiyati tomonidan kim va qachon kumush medal bilan mukofotlanganini ko'rsating.
  - A. Muhammad Solih Qoraxo'ja o'g'li 1898 yilda
  - B. Mirzo Abdullo Abdurahmon 1885 yilda
  - C. Sattorxon Abdug'afforov 1876 yilda
  - D. Akrom polvon Asqarov 1887 yilda
  - E. Mirza Barot mullo Qosimov 1892 yilda
5. Yerli xalq Jahongir to'ra deb \_\_\_\_\_ ni ataganlar. Sababi: \_\_\_\_\_

#### **4-asosiy savol bayoni:**

Qadriyatimiz o'z o'lkamiz tarixini o'rganishdan boshlanishi hech kimga sir emas. Sovet davrida yosh avlodimizga o'tmishimiz tarixini o'rgatishda juda katta xatoliklarga yo'l qo'yib keldik. 1917 yilgacha yashagan sharqshunos olimlar va mahalliy tarixchilarning o'lkani o'rganishga bag'ishlangan asarlari unutildi. O'lka bilan bevosita shug'ullanganlar millatchilik tamg'asiga duchor bo'ldilar.

Sobiq SSJI Xalq ta'limi vazirligi tomonidan universitet va oliy o'quv yurtlar uchun tavsiya etilgan "SSSR tarixi" darsligida "O'rta Osiyo va Qozog'iston" degan mavzuga atigi yarim varaq joy berilgan edi. Darslikda deyarli tamoman Rossiyaning Evropa qismi tarixi yoritilgan edi. Darslikning birinchi bo'limida "Ibtidoiy jamoa tuzumi" degan mavzu bor edi. Unda Rossiyaning Yevropa qismida qadimgi davrga oid manzil va makonlarning kamligi sababli Kavkazorti va O'rta Osiyo tanlab olingan. Qoyatoshlardagi rasmlar kabi noyob yodgorliklar topib o'rganilgan bo'lsa ham, ularni keng yoritilmagan. Bunday nodir san'at obidalarini Surxondaryoda Zarautsoy, Jizzaxda Takatosh, Buxoroda Sarmish, Qoraungursoy, Toshkent vohasida Kobazov, Xo'jakent, Parkent hududlaridan topib o'rganilganligi haqiqat. Bu O'zbekiston xalqlarining ibtidoiy jamiyat tarixini o'rganishda g'oyat qimmatli hujjatdir. O'lkamizning qadimgi, antik davrga oid madaniyati ham tanishtirilmadi.

1917 yilga qadar o'lkamizda har xil fanlar rivojiga hissalarini qo'shib kelgan mahalliy kishilar foydali qazilmalarni topish, ularni ta'riflash, osori atikalarni o'rganish kabi ishlarni amalga oshirganlar. Mulla Sangin, Sattorxon Abdug'afforov, Mirzo Buxoriy, Mirzo Abdullolarning nomlari unutildi. Maktablarda rus davlatining qahramonligi, iqtisodiyoti, siyosati tushuntirib berildi va maqtaldi.

Hozirgi kunda o'lkashunoslik oldida quyidagi eng mas'uliyatli vazifalar turibdi: ko'hna shaharlarimiz, tarixiy obidalarimizdagi sayohat mazmunini tushuntiruvchilarga to'g'ri ilmiy yo'nalish berish, viloyat, voha va vodiylardagi o'lkashunoslik muzeylariga ma'lumotnoma va ko'rsatkichlar tayyorlash, arxivlardagi hujjatlarni o'rganish, nodir qo'lyozmalarni o'rganib, ularni

aholi keng ommasiga yetkazish. Ushbu vazifalar amalga oshirilsa mustaqil davlatimizning haqiqiy vatanparvarlarini tarbiyalab yetishtirishga munosib hissa qo`shilgan bo`ladi.

### **MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR:**

1. 1917 yildan so`ng sovet davridagi o`lkashunoslik ishlarini ta`riflang. Yutuq va kamchiliklarini ochib bering.
2. Mustaqil O`zbekistonda o`lkashunoslik ishlarining holatini baholang.
3. O`lkashunoslikni rivojlantirish uchun sizningcha qanday ishlarni amalga oshirish lozim?

### **Adabiyotlar:**

1. Nabiev A. Tarixiy o`lkashunoslik. -T.:O`qituvchi, 1996.
2. Sa'diev A. XIX asrda Turkistonda tarix fani. – T., 1992
3. Лунин Б.В. Научные общества Туркестана и их прогрессивная деятельность. - Т.:Наука, 1962.

## **3-MAVZU: O`LKASHUNOSLIK FANINING TURLARI VA ASOSIY MANBALARI.**

### **ASOSIY SAVOLLAR:**

1. O`lkashunoslik fanining turlari.
2. O`lkashunoslik fanining asosiy manbalari.

### **Tayanch tushuncha va iboralar:**

Davlat o`lkashunosligi, jamoat o`lkashunosligi, maktab o`lkashunosligi, o`lkashunoslik manbalari, arxeologiya, etnografiya, toponimika, arxiv hujjatlari, muzeylar.

### **1-asosiy savolning bayoni:**

O`lkashunoslik 3 turga bo`linadi: ilmiy, ya'ni davlat o`lkashunosligi; jamoat o`lkashunosligi; maktab o`lkashunosligi. O`lkashunoslikning har uchchala turi bir-biriga aloqador bo`lib, biri ikkinchisini to`ldiradi.

Davlat o`lkashunosligi bilan respublika tarixiy va madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish hamda ulardan foydalanish qo`mitasi, muzeylar, respublika Fanlar akademiyasi qoshidagi tarix, arxeologiya ilmiy-tadqiqot institutlari shug`ullanadi.

Jamoat o`lkashunosligi qishloq, ovul, qo`rgon, tuman, shahar va viloyat hududidagi tarixiy obidalarni saqlash va asrash ishlariga boshchilik qilish bilan birga joylarda istiqomat qilib turgan xalqlarning kelib chiqishlari (etnogenezi), urf-odatlarini o`rganadi hamda ilg`or mehnatkashlar, mehnat qahramonlari xotirasini abadiylashtirish uchun haykallar, mangu olovlar, hurmat taxtalari tashkil qiladi. Bundan tashqari, jamoat o`lkashunosligiga mustaqil ravishda tanga pullarni o`rganuvchi mutaxassislar - numizmatlar, muhrlarni o`rganuvchilar - sfragistlar, tamg`a (gerb)larni o`rganuvchilar - geraldistlar, tosh, metall, sopol va yog`ochdagi yozuvlarni o`rganadigan olimlar - epigrafistlar, eski asbob-uskunalar va qurol-aslaha hamda shu kabi narsalarni to`plovchilar ham uyo`shadi.

Maktab o`lkashunosligi esa maktablarda tarix, inson va jamiyat fani o`qituvchilarining bevosita rahbarligida tashkil qilinadi. Maktab o`lkashunosligi to`garagining a'zolari o`quvchilardan iborat bo`lib, ular o`lka materiallarini to`playdilar. To`plangan materiallar maktab yoki tuman, shahar muzeylarida namoyish qilinadi.

Maktab o`lkashunosligi ta`lim-tarbiyani turmush, ishlab chiqarish, yangi jamiyat qurish tajribasi bilan uzviy bog`liq holda o`rganadi. O`qitish jarayonida o`lka materiallaridan o`rinli foydalanish o`quvchilarning o`z o`lkasi tarixini bilib olishga, chuqur bilim olishga, mustaqil ijod qilishga bo`lgan qiziqishini orttiradi va kelgusi hayot yo`lini tanlab olishga yordam beradi.<sup>7</sup>

<sup>7</sup> A.Nabiev. Tarixiy o`lkashunoslik. T-1996. 26-bet



Maktab o'lkashunosligi ikkiga bo'linib, o'quv jarayonida (o'quv dasturi asosida) va dasturdan tashqari (maktabning tarbiyaviy ishlari rejasiga asoslangan holda) amalga oshiriladi. O'quv jarayonida (sinfda) olib boriladigan o'lkashunoslik ishlari ham ikki maqsadni ko'zlaydi. 1) o'z o'lkasining o'tmishini O'lkashunoslik, etnografik, toponimik, qo'lyozma asarlar va arxiv hujjatlari asosida o'rganish va o'lkashunoslik materiallarini bir tizimga solish; 2) to'plangan o'lkashunoslik materiallaridan tarix hamda inson va jamiyat darslarida foydalanish. Sinfda olib boriladigan o'lkashunoslik ishlariga barcha o'quvchilarning ishtirok etishi majburiydir. Maktabdan tashqari olib boriladigan o'lkashunoslik ishlari, ya'ni sayohatlar, O'lkashunoslik ilmiy safarlarda O'zbekiston Fanlar akademiyasi tarix va arxeologiya institutlarining tavsiyasi bilangina shu ishga layoqatli o'quvchilar ixtiyoriy ravishda ishtirok etadilar. Maktab o'lkashunosligi tarix hamda inson va jamiyat fanlaridan olgan bilimlarni oydinlashtiradi, kengaytiradi hamda har xil fanlarning o'zaro aloqasini ta'minlaydi.

### **MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR:**

1. O'lkashunoslik turlarini ko'rsating
  - A. maktab , davlat, jamoat
  - B. arxeologiya, etnografiya, toponimika
  - C. muzey, arxiv hujjatlari, O'lkashunoslik izlanishlar
  - D. Ekskursiyalar, moddiy-madaniy yodgorliklar, arxivlar
  - E. Maktab muzeyi, yodgorliklar, etnografik materiallar
2. Davlat o'lkashunosligi bilan \_\_\_\_\_ shug'ullanadi.
3. Jamoat o'lkashunosligi mohiyatini ochib bering.
4. Jamoat o'lkashunosligiga qaysi mutaxassislar uyo'shadi va qanday maqsadda?
5. Maktab o'lkashunosligi ahamiyatini tushuntiring.

### **2-asosiy savolning bayoni:**

O'lkashunoslik 5 asosiy manbaga: arxeologiya, etnografiya, toponimika va arxiv hujjatlari hamda muzey materiallariga tayanib ish tutadi. Qishloq, tuman, shahar yoki viloyat hududining tarixini o'rganishda shu manbalardan birontasi ham diqqat-e'tibordan chetda qolmasligi lozim, busiz o'lka tarixini mukammal o'rganib bo'lmaydi.

O'sha besh manbadan biri bo'lgan arxeologiya to'g'risida gap borganda, avvalo maktab tarixi kursining qaysi qismida, qaysi sinfda va qanday qilib, qachon arxeologiyaga oid materiallaridan foydalanish mumkin degan savolga javob berish kerak bo'ladi. Chunonchi, VI sinf tarix kursida O'zbekiston xalqlarining eng qadimgi ibtidoiy jamoa davri: odamlar to'da holda yashagan davr, matriarxat davri, ona urug'ining rivojlanishi, kaltaminorliklar chaylasi, ota urug'i davri, temirning tarqalishi, sug'orishning kelib chiqishi kabi davrlar o'z ifodasini topgan. Demak bu kursda ayrim mavhum tarixiy tushunchalar haqida o'quvchilar ma'lum tasavvur hosil qilishida tarixiy faktlarni ishonarli qilib tushuntirishda arxeologiyaga oid materiallardan o'rinni foydalanish juda muhimdir. Ibtidoiy davr tarixini o'rganishda arxeologiya, etnografiya, toponimika, muzey eksponatlari orqali tartibli ravishda bayon qilish mumkin.

Etnografiya har bir narsa va xodisalarni tekshirishda ularning tub mohiyati, kelib chiqish va taraqqiyotini tadqiq etishda ularga tarixan yondashadi, ya'ni xalqlarning turmush va madaniyatini to'la o'rganadi, faqat shunday qilgandagina xalqlarning turmushi hamda madaniy hayotida yuz bergan o'zgarishlarni chuqurroq tushunish mumkin. Shuning uchun etnografik biron-bir xalqning turmushi va madaniy taraqqiyoti darajasini tekshirganda uning o'tmishi bilan hozirgi hayotini taqqoslab o'rganadi.

Toponimikaning ahamiyati shundaki, mavzuni o'rganish bolrasida qishloq, ariq, tepalik, kanal va boshqa ob'ektlarning nomlari tarixini, etimologiyasini aniqlash maqsadida materiallar to'plansa, joy nomlari tarixini o'rgansa, material yanada qiziqarli va atroflicha yoritilgan bo'ladi. Tarixiy materiallarda ko'pincha tarixan shakllangan geografik nomlar uchraydi. Ularning ma'nosini bilish bilimlarni mustahkamlaydi.

**MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR**

1. O'lkashunoslik manbalarini sanab bering.
2. O'lkashunoslikni o'rganishda arxeologiyaning ahamiyatini tushuntiring.
3. O'lkashunoslikni o'rganishda etnografik ma'lumotlar ahamiyatini ochib bering.
4. O'lkashunoslikni o'rganishda arxiv hujjatlardan foydalanish yo'llarini ko'rsating.
5. O'lkashunoslikni o'rganishda toponimika rolini ochib bering.

**Adabiyotlar:**

1. Nabiyev A. Tarixiy o'lkashunoslik. - T.:O'qituvchi, 1996
2. Safoyeva E., Shoymardonov I. O'zbekiston xalqlari tarixini o'qitishda o'lkashunoslik materiallaridan foydalanish.- T.:O'qituvchi, 1993.
3. Mahkamov S. Maktabda o'lkashunoslik ishlarini tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalar – T., 1998

**4-MAVZU: O'LKASHUNOSLIKDA ARXELOGIYANING ROLI****ASOSIY SAVOLLAR:**

1. O'zbekistonda arxeologiyaning rivojlanishi. Moddiy-madaniy yodgorliklar.
2. O'quvchilarni arxeologiyaga oid ma'lumotlar to'plashga o'rgatish.
3. Qadimgi qrxеologik manzilgohlar.

**Tayanch tushuncha va iboralar:**

Arxeologiya, moddiy yodgorliklar, madaniy yodgorliklar, O'lkashunoslik materiallar, qazishma, yer qazish ishlari, osori-atiqalar.

**1-asosiy savolning bayoni:**

"Arxeologiya" so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, "arxayos" - qadimgi, "logos" - fan, ya'ni qadimgi davrni o'rganuvchi fan degan ma'noni bildiradi. Arxeologiya - o'lkashunoslik va tarix fanlarining asosiy manbalaridan biridir.

Dunyo xalqlarining bir necha yuz ming yillardan beri davom etib kelayotgan tarixi bor. Lekin shu uzoq tarixiy taraqqiyotning eng keyingi 5-6 minginchi yillaridan boshlabgina yozma asarlar bo'lib, undan avval xalqlarda yozuv va yozma tarix bo'lmagan. Yozuv paydo bo'lgandan keyin ham ko'pgina voqealar yozilmay qolgan, podsholarning buyruqlari, ruhoniylarning diniy ta'limotlari, xazinalarning hisob-kitoblari hamda turli urushlar haqidagi yozma asarlar esa o'z zamonasining ishlab chiqarish usullari va vositalarini, xalqning maishatini yetarlicha aks ettirmagan.

Demak, qadimgi shahar va qishloqlar qazib ko'rilganda, u yerlardan qadimgi xalqlarning uy-joy qoldiqlari, uy-ro'zg'or asboblari, zeb-ziynat buyumlari, e'tiqod yodgorliklari topiladi, bu narsalar esa yozma tarixdagi ma'lumotlarga qaraganda o'sha davr turmushini har taraflama va aniqroq yoritib berishga yaraydi. Yozma tarix paydo bo'lgungacha o'tgan bir necha yuz ming yillik davr tarixini hamda yozma tarix chiqqandan keyingi davr hayotini to'la o'rganish zaruriyati o'sha davr xalqlaridan qolgan buyumlarni tekshirib ko'rishni taqozo etadi. Bunday moddiy-madaniy yodgorliklarni tekshiruvchi fan arxeologiyadir. Arxeologiya ibtidoiy odamlar yashagan makonlarni, sinfiy davrdan qolgan shahar, qishloq va mozorlarni qazib ko'rib, tarixni aniqlaydi. Yozuvlar paydo bo'lmasdan burungi davr tarixini arxeologiya qazishmalarida topilgan buyumlar to'ldiradi, arxeologiya qazishmalari natijalari matbuotda keng yoritib boriladi.

O'rta Osiyoda arxeologiya juda yosh fan. XIX asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyo Rossiya tomonidan bosib olingandan keyin, bu yerga kelgan har bir mutaxassis va savodli kishi qal'alar harobasini, sun'iy tepalarni, shaharlar harobalarini ko'rib, ularning tarixini so'rishtira boshladilar. Natijada 1870 yillarda Toshkentda chiqa boshlagan gazeta va jurnallarda bu tarixiy yodgorliklar haqida turli ma'lumotlar e'lon qilina boshladi. Rus arxeologiya havaskorlari hozirgi tarix muzeyini

tashkil etib, har joyda topilgan arxeologiyaga oid yodgorliklarni bu yerga to'plashga kirishdilar. Rus sharqshunoslari N.I.Vesyolovskiy, V.V.Grigoryev, I.Kallaur, V.V.Bartold, V.L.Vyatkin, shuningdek o'zbek arxeologlaridan Akrompolvon Askarov va boshqalar bu yodgorliklarni tarixshunoslik nuqtai nazaridan o'rganish ishida tashabbuskor bo'ldilar. O'rta Osiyoning cho'llari, tog'lari va qishloq yerlaridagi ba'zi yodgorliklar haqida turli afsona va xabarlar matbuotda e'lon qila borildi. Bu ishga qozoq, o'zbek, tojik, turkman havaskorlari ham tortildi.

Rus olimlari va mahalliy havaskorlar bir qancha muhim yodgorliklarda qazishma ishlar ham olib bordilar. XX asr 20-yillarigacha O'rta Osiyoda arxeologiya mustaqil fan darajasiga ko'tarilmadi. Arxeologlar arxeologiya yodgorliklarini ma'lum tarixiy bosqichdagi ishlab chiqaruvchi kuchlarning taraqqiyot natijasi deb baholay olmadilar, ishlab chiqarish munosabatlari qanday bo'lganini payqay olmadilar, madaniyatini ishlab chiqarish taraqqiyoti va ijtimoiy munosabatlar mahsuli deb tushuna olmadilar, balki uni bironta din yoki birorta alohida iqtidorli shaxslar bilan bog'ladilar. So'ngra arxeologiya yo'li bilan topilgan buyumlarga faqat yozma tarixni tasdiqlovchi material sifatidagina qarab, arehologiyaning imkoniyatlarini chegaralab qo'ydilar.

O'zbekistonda arxeologiya fanining rivojlanishida yirik rus olimlari A.Yu.Yakubovskiy, S.P.Tolstov, M.E.Masson, A.P.Okladnikov, V.A.Shishkin, birinchi o'zbek arxeologi Ya.G'ulomovning xizmatlari kattadir. Respublikamizda keng ko'lamda olib borilgan O'lkashunoslik tadqiqotlar tufayli O'zbekiston arxeologiyasining deyarli hamma davrlariga oid juda ko'p, xilma-xil ajoyib moddiy madaniyat yodgorliklari topib tekshirildi. Arxeologiyaga oid tekshirishlar natijasida to'plangan boy va qimmatli moddiy manba O'zbekiston xalqlarining qadimgi tarixini yoritish imkonini beribgina qolmay, balki o'rta asrlar tarixi, shuningdek shaharlar "yoshini" aniqlashga ham yordam berdi.<sup>8</sup>

O'lkani o'rganishda ayniqsa O'zbekiston vodiy va vohalarining tarixini, etnografiyasini, arxeologiyasini, toponimikasini va nodir qo'lyozma asarlarini o'rganishda tarix fakulteti studentlari uchun Ya.G'ulomov, A.Askarov, Yu.Buryakov, T.Shirinov hamda boshqa arxeolog olimlar asarlarini o'rganish katta ahamiyat kasb etadi.

### **MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR:**

1. Arxeologiya tushunchasi nimani anglatishini tushuntiring.
2. Arxeologiya fanining o'rganish ob'ektlari bu \_\_\_\_\_
3. Arxeologiya fani qaysi fanlar bilan aloqadorligini ayting va asoslab bering
4. Arxeologiyaning fan sifatida rivojlanishini sharxlab bering.
5. O'zbek arxeologiya fanining rivojiga ta'sir ko'rsatgan olimlarni ayting .
6. O'zbekiston arxeologiyasi fanining namoyandalari va ularning sizga tanish bo'lgan asarlarini izohlang.

### **2-asosiy savol bayoni:**

O'lkashunoslikni o'rganish uchun o'qituvchi o'lka va o'lkashunoslik nitma, uni qaysi ilmiy va ommaviy adabiyotlardan o'qib o'rganish mumkin, o'lka muzey ekspozitsiyalarida, arxiv hujjatlarida o'z o'lkasiga oid qanday ma'lumotlar bor va, nihoyat, o'lkashunoslikning birinchi manbai bo'lgan arxeologiya haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lishi lozim.

O'quvchilarning arxeologiyaga oid ilmiy safarlar tarkibida ishtirok etishi juda katta ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Talaba va o'quvchilarni arxeologiyaga oid ishlarga jalb qilishdan avval, ularni bu ishga puxta tayyorlash zarur. Qanday yodgorliklar arxeologiyaga oid yodgorlik sanaladi, arxeologiyaga oid yodgorliklarni qidirish turlari va uslublari nimalardan iborat kabi savollarga javob beriladi, mutaxassis-arxeologlar bilan uchrashuvlar o'tkaziladi, arxeologiya haqida adabiyotlar tahlil qilinadi. Muzey ekspozitsiyalarida namoyish qilingan materiallar bilan adabiyotlarda aks ettirilgan arxeologiyaga oid materiallar taqqoslanadi. O'quvchilar tomonidan o'rganiladigan ob'ekt haritadan ko'rsatiladi va yo'nalishlari chiziladi.

<sup>8</sup> Русские Востоковеды. Сборник. Москва-Ст.Петербург. Изд «Прима».-2009г. Стр-199.

Natijada student va o'quvchilar arxeologiyaga oid yodgorliklarni o'rganishdan asosiy maqsadlari va vazifalari nimalardan iborat ekanligini bilib oladilar. Tadqiqot ishlarini qaerdan boshlash va qanday o'rganishni to'g'arak mashg'ulotlarida muhokama qiladilar.

To'g'arak mashg'ulotlarida 1) tarixiy, moddiy yodgorliklarning joyi va geografik sharoiti, 2) yodgorlikning nomi va turlari, 3) umumiy ta'rifi, 4) topilmalarni daftarga qayd qilish ishlari muhokama qilinadi. Bundan tashqari yana mahalliy aholi shu yodgorlik haqida nimalar bilishi, bu haqda afsonalar borligi aniqlanadi. Yodgorlik mahalliy xalqning ajdodlariga tegishli bo'lsa, madaniy qatlamini, uning chuqurligini aniqlab, topilmalarni qayd qilish kerak. Topilgan ma'lumotlarning davri o'qituvchi yordamida aniqlanadi. Topilgan ashyolar yangi bo'lsa, ya'ni oldingi topilmalar ichida uchramasa, ularni muzeyga topshirish kerak. O'quvchilar O'lkashunoslik qidiruv ishlariga juda qiziqib ishtirok etishadi.

O'qituvchi rahbarligida o'tkazilgan turli xil ilmiy safarlar va sayohatlar, ekskursiyalar natijasida topilgan O'lkashunoslik topilmalar o'lkashunoslik to'garagida o'rganiladi, maktab muzeyiga topshiriladi. O'quv jarayonida esa ular daliliy ma'lumotlar sifatida foydalaniladi.

Arxeolog olimlarining kashfiyotlari tarix fanini yanada rivoj topishida katta rol o'ynaydi. Shu bilan birga maktabda tarixni o'qitishning samaradorligini oshirishga salmoqli hissa qo'shadi. Yangi O'lkashunoslik kashfiyotlar xususidagi qisqacha hisobotlar "O'zbekistonda ijtimoiy fanlar", "O'zbekiston moddiy madaniyat tarixi" to'plamida boshqa jurnal sahifalarida yoritib turiladi. Bu ma'lumotlardan ham o'qituvchi tarix darslarida unumli foydalanishi mumkin.

### **MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR:**

1. Maktabda O'lkashunoslik ma'lumotlarni to'plash jarayonini tashkil etish yo'llarini ko'rsating.
2. Arxeologik ma'lumotlarning o'lkashunoslikdagi rolini ochib bering.
3. Arxeologik ma'lumotlar asosan qaysi jurnal va to'plamlarda bosib chiqiladi?
4. O'lka tarixini o'rganishda arxeologik ma'lumotlardan qay tartibda foydalanish maqsadga muvofiqligini tushuntiring.
5. Maktabda arxeologik tadqiqotlar o'rganilishi kerakmi? Nima uchun?

### **Adabiyotlar:**

1. Nabiye A. Tarixiy o'lkashunoslik. - T.: O'qituvchi, 1996
2. Safoyeva E., Shoymardonov I. O'zbekiston xalqlari tarixini o'qitishda o'lkashunoslik materiallaridan foydalanish. - T.: O'qituvchi, 1993.

## **5-MAVZU: O'LKASHUNOSLIKDA ETNOGRAFIYANING AHAMIYATI**

### **Asosiy savollar:**

1. O'zbek xalqi etnografiyasi
2. O'lkashunoslikda etnografiyaning ahamiyati

### **Tayanch tushuncha va iboralar:**

Etnografiya, madaniyat, maishiy hayot, urf-odat, milliy kiyim-kechak, marosimlar, san'at, etnogenez, ma'naviy turmush.

### **IDENTIV O'QUV MAQSADLARI:**

- 1.1. Etnografiya tushunchasini izohlaydi.
- 1.2. Etnografiyaning tarixiy fanlar tizimidagi o'rnini ko'rsatadi.
- 1.3. O'zbek xalqi etnografiyasini tavsiflaydi.

### **1-asosiy savolning bayoni:**

Etnografiya (etnos - xalq, graphio - yozish) - xalq haqidagi fan bo'lib, u xalqni o'rganuvchi, ta'riflovchi fan yoki xalqshunoslik fani deb ham yuritiladi. Bu fanni ayrim vaqtlarda

"etnologiya" ("etnos" - xalq, "logos" - tushuncha) deb ham atashgan.<sup>9</sup> Etnografiya dunyo xalqlarining madaniyatini, maishiy hayotini, etnogenezini, joylashishini, madaniyat tarixini, o`zaro aloqa va munosabatlarini o`rganuvchi fandir. Etnografiya tarixiy fanlar, ayniqsa arxeologiya, antropologiya, geografiya, tilshunoslik bilan bevosita bog`liqdir.

Inson aql-zakovati va qo`li bilan yaratilgan hamma narsa madaniyat etnografiyasidir. Madaniyat ikkiga: moddiy va ma'naviy madaniyatga bo`linadi. Moddiy madaniyatga transport, me'morchilik inshootlari, kiyim-kechak, zeb-ziynat buyumlari, qurol-yarog` va shu kabilar kiradi. Insonning ilmiy faoliyati bilan yaratilgan san'at, adabiyot, yozma manbalar, fan, diniy marosimlar, diniy e'tiqodlar va shu kabilar ma'naviy madaniyatga kiradi.

Odatda etnografiya ayrim qit'alar, mamlakatlar yoki xalqlarga qarab o`rganiladi.

Etnograf olimlar oldida turgan muhim vazifalardan biri - xalqlarning kelib chiqishini, ular haqida etnografiyaga oid ma'lumotlarni to`plash, yig`ish, umumlashtirish va tadqiq qilish hamda ular asosida xulosa chiqarishdan iboratdir.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida o`zbek etnografiyasini o`rganishda ilmiy jihatdan diqqatga sazovor bir qancha ishlar qilindi, tadqiqotchi olim va o`lkashunoslar safi kengaydi. Ular o`z asarlarida o`zbek va boshqa O`rta Osiyo xalqlari madaniy va maishiy turmushining xususiyatlari, ijtimoiy va oilaviy tuzumning o`tmish va o`z zamonasidagi shakli, urf-odatlar, urug`-aymoq va qabilaviy tuzumi, diniy e'tiqodlari va boshqa xususiyatlarini ta'riflash bilan birga ularning ma'nosini ilmiy jihatdan sharhlashga intilganlar. Lekin o`z davrining hukmron g`oyalari ta'siri ostida bo`lgan bu tadqiqotlar cheklangan edi. Shunday bo`lsada, ular to`plagan ma'lumotlar qimmatini benihoyadir.

1920 yilda tashkil etilgan O`rta Osiyo Davlat universitetiga kelib ishlagan etnograf professor N.G.Mallitskiy, mashhur olimlar M.S.Andreyev, A.A.Semyonov, A.A.Dinayevlar O`rta Osiyo xalqlari haqida ko`pgina tarixiy-etnografik asarlar yaratdilar. Biroq o`sha davrda etnografiya fanining vazifalari haqida mujmal, noaniq tushunchalar ma'lum darajada tarqalgan bo`lib, tadqiqotchilarning diqqat markazida deyarli o`tmishga oid masalalarni o`rganish turgan edi. Turar joy, uy-ro`zg`or, kiyim-kechak va taomlar, oilaviy va ijtimoiy turmush, diniy e'tiqodlar va etnografiyaning boshqa masalalarini bir-biridan ajratilgan holda o`rganish va ularni ijtimoiy turmush hamda ishlab chiqaruvchi kuchlar bilan bevosita bog`liq ekanligini ko`rsatmaslik o`sha davrda paydo bo`lgan ilmiy ishlarning asosiy kamchiligidir.

O`rta Osiyoda 1920-1924 yillarda o`tkazilgan aholi ro`yxatining tashkilotchisi I.P.Magidovich diqqatga sazovor ish qildi. U o`zining aholi o`rtasida to`plagan tarixiy etnografiyaga oid ma'lumotlarga asoslanib, o`zbek xalqi qabilalarining ro`yxati hamda qisqacha etnografiyaga oid tavsifini berdi. Bundan tashqari I.I.Zarubin, N.G.Mallitskiy, M.S.Andreyev, A.A.Semyonovlar ham o`zbek etnografiyasini o`rganishga muhim hissa qo`shdilar.

30-yillarga kelib S.P.Tolstov va L.P.Potapovlar o`zbek xalqi etnografiyasini o`rganish ishlarini jonlantirib yubordilar. O`zbekiston hududida urushdan avvalgi yillarda katta etnografiya ishlarini o`tkazish dastlab O`rta Osiyo davlat dorilfununida, qadimgi yodgorliklar va san'atni muhofaza qilish qo`mitasida, Toshkent, Samarqand va Buxoro muzeylarida markazlashgan edi. 1943 yilda tashkil topgan O`zFA, chunonchi tarix va arxeologiya institutining etnografiya bo`limi kelajakda etnografiyaga oid tadqiqotlarning markazi bo`lib qoldi. Urushdan keyingi yillarda Farg`ona etnografiya ilmiy safari, keyinroq boshqa viloyatlarda o`tkazgan ilmiy safarlari etnografiyani o`rganishda katta qadam bo`ldi.

Har bir xalqning milliy shakllanishi, etnik tarkibi va xususiyatlari, o`zbeklarning qabila va urug`larini tadqiq qilish, ularning o`zbek millatiga singib ketish jarayonini o`rganishda V.G.Moshkova, B.Karmisheva, K.Shoniyozov, T.Fayziev, I.Jabborovlarning ishlari diqqatga sazovordir. O`zbek hunarmandchiligini etnografik jihatdan o`rganishda Sobirjon Ibrohimovning asarlari alohida ahamiyatga ega.

<sup>9</sup> Wikipedia. Etnos & Cultural Subetnos.

Hozirgi kunda "O`rta Osiyo va Qozog`iston xalqlari" nomli mukammal ilmiy asar deyarli butun etnografiyaga oid tadqiqotlarning yutuqlarini o`zida mujassamlashtirgan. Hozirgi kunda o`zbek xalqi etnografiyasini o`rganish yuqori bosqichga ko`tarilmoqda.

### **MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR:**

1. Etnografiya so`zining ma'nosini tushuntiring.
2. Etnografiya fani predmeti va uni o`rganish ahamiyatini ochib bering
3. Etnograf olimlar va ularning tadqiqotlari to`g`risida hikoya qiling.

### **2-asosiy savolning bayoni:**

O`lka tarixini o`rganishda, qolaversa, yosh avlodni ona-yurt va o`z xalqiga hurmat va muhabbat, baynalmillik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda etnografik manbalarning ahamiyati kattadir. O`quvchi o`z xalqi tarixini, madaniyatini va tilini yaxshi bilsagina o`z ona-yurtiga muhabbati yanada oshadi, boshqa xalqlar tarixiga hurmat bilan qaraydi.

Xalqlarning kelib chiqishi bilan bog`liq materiallar, ularning turmush tarzi, yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar, an'anaviy urf-odatlariga oid materiallardan tarix darslarida foydalanish, o`lkashunoslik to`garagida foydalanish mavzularni yaxshiroq tushunib olishga, o`rganilayotgan davrga oid xalqning turmush tarzini tasavvur qilishga yordam beradi. Shuningdek, etnografik muzeylarga borish, milliy libosimizda, kashtachilikda, urf-odatlarimizda saqlanib kelinayotgan ayrim etnografik materiallardan o`quvchilarni xabardor qilish, ularning xalqimiz tarixiga oid bilimini oshiradi, tarix darsi esa mazmunliroq o`tadi.

Etnografik manbalardan foydalanilgan holda sinfdan tashqari kechalar, viktorinalar uyushtirish ham mumkin.

Etnografiya har bir narsa va hodisalarni tekshirishda, ularning tub mohiyati, kelib chiqish va taraqqiyotini tadqiq etishda ularga tarixan yondashadi, ya'ni xalqlarning turmush va madaniyatini to`la o`rganadi, faqat shunday qilgandagina qardosh xalqlarimizning turmushi hamda madaniy hayotida yuz bergan ulkan o`zgarishlarni chuqurroq tushunish mumkin. Shuning uchun etnograflar biron-bir xalqning turmushi va madaniy taraqqiyoti darajasini tekshirganda, uning o`tmishi bilan hozirgi hayotini taqqoslab o`rganadi.

O`zbek xalqi moddiy va ma'naviy madaniyati, san'ati hamda folklorning xususiyatlarini aniqlash uchun ularning etnografiyasini o`rganish talab etiladi va bu murakkab ishdir. O`zbek xalqining etnografiyasini o`rganishda etnografik muassasalar keng faoliyat ko`rsatmoqda. Oldingi yillarda S.P.Tolstov, A.Yu.Yakubovskiy, A.A.Semyonov kabi olimlar etnografik, etnogenetik ekspeditsiyalar takshil qilib, o`zbek xalqi kelib chiqishi, etnik tarkibi masalalarini keng yoritib berganlar. Bu muhim masalalarni yoritishda taniqli olimlar B.Ahmedov va R.Mukminova ham muhim hissa qo`shdilar.<sup>10</sup>

Etnografiyadagi eng muhim muammo - milliylikni aniqlashdir. Har bir xalqning milliy shakllanishi, etnik umumiyliigi, xususiyatlari, o`zaro yaqinlashuvini tushunish uchun ayrim etnografik guruhlarini har tomonlama o`rganish zarur. O`zbeklarning ayrim qabila va urug`larini tadqiq qilish va ularning o`zbek millatiga singib ketishi jarayonini o`rganishda etnograflardan V.Moshkova, K.Zodixina, B.Karmisheva, K.Shoniyozov, I.Jabborov, T.Fayzievlarning ishlari diqqatga sazovordir. O`zbek etnografik guruhlaridan lokay, qarluq, qurama va boshqa qabilalar mukammal o`rganilgan. Etnografik ma'lumotlarni to`plashdan oldin ushbu ishlar bilan tanishib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Etnografik ma'lumotlarni to`plash jarayonida qabila va urug`larning turmush tarzi, moddiy madaniyati, hunarmandchilikdagi o`ziga xos xususiyatlar, urf-odatlar, kiyim-kechaklari va boshqa xususiyatlaridan xabarjor bo`lish lozim, aholini, ayniqsa qariyalarni so`rab-so`rishtirib, ularni o`rganish lozim.

### **MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR:**

<sup>10</sup> Русские Востоковеды. Сборник. Москва-Ст.Питербург. Изд «Прима». -2009г. Стр-201.

1. Etnografiyaning o'lkashunoslikni o'rganishdagi ahamiyatini ochib bering.
2. Etnografik ma'lumotlarni to'plashda qanday o'ziga xos xususiyatlarga e'tibor berish zarur?
3. Etnografik ma'lumotlarni to'plashdan oldin qaysi olimlar asarlari bilan tanishish tavsiya qilinadi?
4. Etnografik ma'lumotlarga qay tariqa ega bo'lish mumkin?
5. Biron bir qishloqdagi urug'-qabilaning etnografiyasini o'rganish uchun qaysi savollar berishingiz mumkin? (Masalan Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidagi boyovut urug'ini o'rganish)

#### **Adabiyotlar:**

1. Nabiev A. Tarixiy o'lkashunoslik. - T., 1996
2. Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi. - T., 1991
3. Safoeva E, Shoymardonov I. O'zbekiston xalqlari tarixini o'qitishda o'lkashunoslik materiallaridan foydalanish. - T.,1993.

### **6-MAVZU: TOPONIMIKA - O'LKA TARIXINI O'RGANISHNING ASOSIY MANBAI**

#### **ASOSIY SAVOLLAR:**

1. Toponimika - o'lka tarixini o'rganishning asosiy manbalaridan biri
2. Sirdaryo viloyatidagi joy nomlarini o'rganish.
3. Jizzax viloyati toponimikasi va uni o'rganish

#### **TAYANCH TUSHUNCHA VA IBORALAR:**

Toponimika tushunchasi, toponimik material to'plash, toponimik materialdan foydalanish, Boyovut, Xovos, Qo'ybotgan,, Navkat, Nushkent, Robot, Jaloyir, Forish, Avliyo.

#### **1-asosiy savol bayoni:**

1917 yilga qadar toponimika mustaqil fan sifatida o'rganilmay, uning vazifasini tarixiy geografiya fani bajarib kelardi. Toponimika geografik nomlar, kishi ismlarini o'rganadigan fan sifatida maydonga keldi. Toponimikani "zamin tili", ya'ni yer tili deb ham atashadi. Toponimika atamasi lotin tilidan olingan bo'lib, "topos" - joy, "onom" - nom ,umuman joy nomini o'rganadigan fan degan ma'noni bildiradi. Geografik nomlar va zamin qa'rida o'rganilayotgan nomlar, insonlarga qo'yilgan ismlar toponimikaning o'rganish manbai hisoblanadi. Toponimika ikki ob'ektdan: mikro va makro toponimlardan iborat bo'lib, mikrotoponimika - grammatik jihatdan mayda ob'ektlarni, ya'ni "turdosh otlarni", mikroob'ektlarning nomlarini, makrotoponimika esa atoqli otlar, ya'ni yirik ob'ektlarning nomlarini tadqiq qiladi.

Toponimikaning tilshunoslik, tarix, geografiya, arxeologiya va boshqa fanlarga aloqadorligi uning muhim xususiyatlaridandir. Toponimika ko'pincha tarixiy dalillarga va isbotlarga muhtoj. Har bir tuman toponimikasi murakkab tarixiy jarayon bilan bog'liq bo'lib, yer ostida ko'plab madaniy qatlamlar mavjudligi uni sinchiqlab tadqiq qilishni talab etadi. Toponimika metodologiyasiga muvofiq uni fan sifatida o'rganish uchun toponimlarning paydo bo'lishiga doir ma'lumotlardan foydalanish, nomlarning mavjud bo'lgan barcha formalarini aniqlash, nom va atamalarni o'sha joy bilan bog'liq holda tanlash va eng muhimlarini o'rganish zarur.

Toponimika uch tamoyilga asoslanadi: 1) toponimlar paydo bo'lish tarixini o'rganish, 2) toponimlarning geografiyaga oid ma'lumotlarini aniqlash, 3) asosiy qidirilayotgan toponimlarning barcha nomdagilarini ilmiy asosda alohida o'rganib, ulardan xulosa chiqarishdir.

Toponimikani o'rganish ma'lumotlarni to'plashdan boshlanadi. Toponimik ma'lumot yig'ish ishini boshlashdan avval ma'lumotlarni qanday va qaerdan to'plash hamda kimlar bilan qaysi mavzuda suhbatlar o'tkazishning taxminiy ish rejasi va dasturi ishlab chiqilishi shart. Dalada tadqiq ishlarini amalga oshirish jarayonida aholidan eshitgan hikoya, afsona va o'tmish haqidagi suhbatlarni hamda boshqa materiallarni muntazam yozib borish kerak. So'ng toponimik toifalar bo'yicha maxsus kartoteka tuziladi. Shu asosda lug'atlar tuziladi. Tadqiq qilingan va to'plangan toponimik ma'lumotlar o'lkashunoslik muzeyida aniqlanadi. V.A.Nikonovning "Vvedenie v

toponimiku" (M., 1965) asarida toponimika bo'yicha tadqiqotni qanday olib borish, uni nimadan va qachon boshlanishning uslubi va usullari aniq ko'rsatib berilgan.

O'zbekiston tarixini o'rganishda toponimik ma'lumotlardan foydalanish, toponimik va geografik lug'atlar tuzish, ulardan foydalanish dars mazmunini yanada boyitadi. Toponim nomlar kimyoviy elementlardan, qit'alar va dengizlar nomidan, o'simlik va hayvonlardan olingan nomlar, geologiya va geografiya atamalaridan olingan toponimlar, gazlamalar, oziq-ovqat nomlari, ichimliklar nomlaridan olingan bo'ladi. Toponimikaga oid ma'lumotlardan foydalanish yoshlarni tarbiyaning ajralmas qismi bo'lgan estetik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning negizi bo'lib hizmat qiladi.

### **MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR:**

1. Toponimika tushunchasi va uning mohiyatini ochib bering.
2. Toponimika ob'ektlarining nimalarni tadqiq qilishini ayting:  
Mikrotoponimika \_\_\_\_\_  
Makrotoponimika \_\_\_\_\_
3. Toponimikaning qaysi fanlar bilan aloqadorligini sharhlab bering.
4. Toponimik ma'lumotlar to'plash uslublarini izohlang.
5. Toponimlardan nom olgan so'zlar haqida gapirib bering.

### **2- asosiy savol bayoni:**

Darsda o'qituvchi o'quvchilarga: "Siz bu joylarni nima uchun shunday atalar ekan, deb o'ylab ko'rganmisiz? O'zingiz yashab turgan qishloq, shahar, yoningizda oqib o'tadigan ariq, anhor nomining ma'nosini bilasizmi?"- degan savollarni o'rta tashlaydi. Shunday savollarga javob topish yo'llari bilan ular toponimik materiallarni to'plash yo'lida mustaqil tadqiqot olib borish ishlariga jalb qilinadi. O'qituvchi barcha joylar nomlarini qanday kelib chiqqanligi va ularning ma'nolari ustida to'xtab o'tmasdan, faqat katta masalalar ustida batafsil to'xtalib, mikrotoponimlar bilan mustaqil ishlashni o'quvchilarning o'zlariga topshirsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, Sirdaryo daryosining nomi haqida o'qituvchi batafsil tushuntirib beradi, anhor va ariqlar nomlari haqida o'quvchilarga mustaqil o'rganib kelishlarini topshirishi mumkin.

Sirdaryo viloyatidagi joy nomlarini manbalarga asoslangan holda izohlab o'tamiz.

O'rta Osiyodagi xilma-xil nomlar bilan atalgan daryolardan biri SIRDARYODIR. Xuddi shu nom bilan ataladigan O'zbekistondagi viloyatlardan biri ham Sirdaryodir. Bu tarixda juda ko'p nomlar bilan atalgan. Yunon tarixchilari Yaksart, ba'zan Tanais, zardushtiylarning muqaddas kitobi "Avesto"da "Danu", "Yaosha", arablar kelganidan keyin Sayxun, Beruniyda "Xasart" shaklida tilga olingan. Turkiy yozuvlarda esa Yenchug'iz nomi bilan atalgan (Marvarid - ya'ni Inju degani). Sirdaryo nomi (H.Hasanov aytishicha) daryo atroflari yashagan sar (silis - sir) degan qabila nomi bilan bog'lash to'g'riroqdir.

SAROYQISHLOQ - Sh.Rashidov tumanidagi qishloq. Bu nom 92 bovli o'zbek qvmlaridan biri bo'lgan "Saroy" qabilasi nomidan olingan.

PAROMOVUL - Guliston tumanidagi qishloq, daryo yoqsida joylashib, daryogacha qo'yilgan parom uchun shu nomda atalgan.

BOYOVUT-tuman nomi bo'lib, bu qadimgi mo'q'ul qabilalaridan biri. Shuningdek, 92 bovli o'zbek qabilalaridan biri. XVI asrda yashagan Farg'onalik Mulla Axsikandiyning ta'rificha Boyovut - mo'q'ulcha "boylar" degani (alpovut - alplar, bahodirlar) Mulla Sayfiddin Axsikandiyning "Majmu at-tavorix" asarida qayd qilingan.

OBITAVON - Sayxunobod tumanidagi qishloq. XIX asr oxirlarida Rossiyadan ko'chib kelgan ruslar tomoni Obetovanno'y (Obetovannaya zemlya) - orzu qilingan yer" deb o'zlashtirilib olgandan, bunyod etilgan bo'lib, Obetovanno'y (obetovannaya zemlya) - "orzu qilingan er" deb atalgan.

SOBOT - (savat) - Xovos tumanidagi qishloq. Bu qishloq tarixiy qishloq bo'lib, katta savdo yo'li ustida joylashgan. Bu nom arab geografiyasida Istaxriy, Ibn Xavqal, Makdisiy asarlarida tilga olinadi. Sobot arabcha nom bo'lib "yom", "bekat", "karvonsaroy" demakdir.



TO`QAYOVUL - Guliston tumanidagi qishloq. Bu joy atroflari bir vaqtlar to`qay, ya'ni qamishzor bo`lgani uchun shu nom berilgan.

XOVOS - Xovos tumanidagi qishloq bo`lib, tarixiy joy arab Istaxriy, Ibn Xavqal va Makdisiylar asarlarida esga olinadi, uning etimologiyasi xali aniqlanmagan.

SHO`RUZAK - Sayxunobod tumanidagi qishloq va ariq nomi. O`zak, uko`zak(daryocha) ma'nosini bildirib, bu M.Qoshg`ariyda, Oltoydagi turkiy xalqlarda ba'zan vodiyni o`zak deyishadi.

JO`LANGAR - Xovos tumanidagi qishloq. To`g`ris, Jo`yi Langar bo`lishi kerak. Jo`y (tojikchada) ariq, kanal demakdir. Langar deganda mozor, qabr, ba'zan musofirxona, karvonsaroy, ko`proq avliyo qabri tushunilgan. Julangar avliyo arigi degan ma'noni anglatadi. Langar deganda kichik bir o`zbek urug`i ham qayd qilingan. Biroq bu qishloq, atroflarida ko`proq tojiklar yashaydi.

SARDOBA - Sirdaryo viloyatidagi Oq-oltin tumani markazi. Samarqanddagi Paxtachi tumanida ham Sardoba qishlog`i bor. Sardoba (tojikcha) sard-sovuq, muzdek, ob- suv so`zlaridan hamda ot yasovchi qo`shimchalardan iborat bo`lib, muzdek suv saqlanadigan joy yoki suv havzasi degan ma'noni bildiradi. Bu nomning berilishiga sabab Sardobada A.Temur davrida qurilgan sardoba -ya'ni pishiq g`ishtdan qurilgan, gumbazli suv saqlanadigan bino harobasi mavjud. Tarixdan ma'lumki, sardobalar karvon yo`li ustida qurilgan bo`lib, savdogarlar bu yerdan suv ichib, ot-tuyalarini sug`orib, yo`llarida davom etganlar. Shunday inshootlardan biri Oq-oltin tumanida saqlanib qolingan. Sardoba joy nomi ham shundan olingan.

ETTIURUG` - Guliston tumanidagi qishloq nomi Ettiurug` - o`zbek qipchoqlari tarkibidagi yirik urug`lardan biri. Ular asosan Zarafshon daryosining o`rta oqimida, qisman Toshkent vohasida yashaganlar. Ettiurug` qozoq va qirgizlarning etnik tarkibida ham bor. Ettiurug` oytamg`ali, qo`shtamg`ali, sirg`ali, qamchili, juvonli, samanotli, cho`michli urug`laridan iborat. Ettiurug` tarkibidagi bu urug` nomlari o`zbeklarning boshqa yirik qabilalari ham uchraydi. Masalan: Samarqand viloyatidagi Poyariq tumanida Jetmuruv qishlog`i bor.

UVOQ- Farhod shirkatlar yushmasidagi ovul. Chunki bu yerda faqat uvoqliklar yashadi va unchalik katta emas. Uvoq etnonimining kelib chiqishi to`g`risida bir necha qarashlarga duch keldik. Uvoq qishlog`i boshqa bir qishloqdan ajralgan paytda kamchilikni tashkil qilishgan.<sup>11</sup>

### **MUHOKAMA UChUN SAVOLLAR:**

1. Sirdaryo viloyati tashkil topgan sanani aniqlang.

A. 1952 y.

V. 1956 y

S. 1961 y.

D. 1963 y.

E. 1965 y.

2. Guliston shahri o`rnida dastlab tashkil topgan temir yo`l stantsiyasi qanday nomlangan?

A. Ettiurug`.

V. Paromovul.

S. Achchiqquduq.

D. Mirzacho`l

E. Xovos.

3. Obitavon (Obetovannaya) qishlogi qachon tashkil qilingan?

A. XIX asr 60- yillarida

V. XIX asr 80- yillarida.

S. XIX asr 90- yillarida.

D. XX asr boshida.

E. Sho`rolar davrida.

<sup>11</sup> S.Qorayev. Toponimika. T-2009

4. Viloyatdagi sho`rolar davridagi joy nomlarining yangi nomlarini sanab bering.
5. Mustaqillikka erishilgach, ba'zi joy nomlarining o`zgartirilishini tushuntirib bering.

### 3-savolning bayoni:

**AXTAXONA** - Zomin tumanidagi qishloq Axtaxona - otxona demakdir. Shu bilan birga «axtachi» degan urug` ham bor. Axtachi qirg`iz urug`larining (qipchoqlar) biri bo`lib, Axtachi mo`g`ulcha bo`lib, "attabibi" (sinchi) otboqar, miroxur degan ma'nolarni bildirgan etnonim tarkibidagi li, chi kabi qo`shimchalar ko`pincha tushib qoladi; xona esa biron xalq, urug` yashaydigan joy ma'nosini anglatadi. Taqqoslang: Arabxona - arablar yashaydigan joy. Durmonxona - durmon urug`i vakillari yashaydigan joy.

**ACHCHI**- Zomin tumanidagi qishloq. Dastlab Abdullaxon tarixida (XVI asr) Achiq - ochiq shakllarida tilga olingan. Qishloq ochiq joyda joylashganligi uchun ochiq deb atalgan. Keyinchalik Achchi bo`lib ketgan.

**BAG`ANALI** - Forish, G`allaorol tumanlari, Samarqandning Kattaqo`rg`on, Narpay, Pasdarg`om tumanlari, Qorabog`anali- Forish tumanidagi, qarapchi urug`ining bir tarmog`i shunday atalgan. Bag`ana- qorakul terining bir turi. Bag`ana so`zining "ustun" ma'nosi ham bor.

**BEKAT** - Forish tumanidagi qishloq bo`lib, xuddi shu nomdagi qishloqlar Samarqand, Farg`ona viloyatlarida ham mavjud. Chuqurbekat - Samarqand viloyati Bulung`ur tumanida. Bekat - urmon xo`jaligi, pochta bo`limi, karvonsaroy ma'nolarini anglatgan. Bekat ruscha piket so`zidan kelib chiqqan. Yozma manbalarda, chunochi, "Boburnoma"da bek so`ziga arabcha ot - ko`plik affiksi qo`shilib bekat shaklida ishlatilgan, deyiladi.

**BOYQUNG`IR**- Baxmal tumanidagi qishloq. Boyq`ung`ir etnonimi asli qung`irot tarkibiga kirgan, chunki qung`irot so`zinig uzagi qung`ir bo`lib, -ot ko`plik affiksidir. Qozog`istondagi Boyqung`ir kosmodromi nomi ham shu urug` nomidan olingan.

**GURALASH** - Zomin qo`riqxonasiining oldingi nomi bo`lib, mahalliy xalq uni xali ham guralas deb ataydi. Guralas degan urug` bor (Qarang:Doniyorov "Shajara" 81-bet). 92 bovli o`zbek qavmlari orasida ko`ralash yoki ko`ralas degan urug` qayd qilingan. Samarqand viloyati, hozirgi Navoiy viloyati Nurota tumanida Ko`ralas degan qishloq nomi ham shundan chiqqan.

**DARGAT** - Jizzax tumanidagi qishloq bo`lib, suv taqsimlagich inshooti bo`lgan tug`on, dargat (darxot) deyilgan ( A.Muhammadjonov. Quyi Zarafshon... 295 bet).

**DUVLAT**- Baxmal tumanidagi qishloq bo`lib, qishloqda qirg`izlarning manak urug`iga kiradigan duvlat shoxi vakillari yashaydi. Uleke duvlat bir tuqqan, degan naql bor (uleke ham kichik bir shox). Aslida duvlat qozoqlarning yirik urug` qabila tarkibiga kiradigan qabiladir. Duvlat, dulat, duglat qabilasi boshqird, o`zbek va boshqa turkiy xalqlar tarkibiga ham kirgan.

**JADIK** - Baxmal tumanidagi qirg`izlarning kichik bir urug`i nomi bilan ataluvchi qishloq. Jadik qirg`izlar yashaydigan qishloq nomidir.

**SANGZOR**- Turkiston tizma tog`ining shimoliy yonbag`irlaridan boshlanib, Jizzax shahri yonidagi suv omboriga qo`yiladigan bir qismi Arnasoy ko`liga etib boradigan daryo. Baxmal tumanida shu nomda ataluvchi shirkat xo`jaligi ham bor.

**NUSHKENT** - Baxmal tumani Sangzor shirkat xo`jaligi hududidagi qadimiy shahar harobasi. Eramizning III-VI asrlarida bu yerda hayot gullab yashnagan. Hozirgi kunda shu nomda ataluvchi bog`dorchilikka ixtisoslashtirilgan xo`jalik bor.

**NUCHKAT** - O`rta asrlarda Ustrushonaning g`arbiy qismida bo`lgan shahar. Uning o`rni Baxmal tumani Sangzor shirkat xo`jaligi markazidagi Nushrovon qishlog`i o`rniga to`g`ri keladi. Bu shahar Eron sasoniylar podshosi Husrav Anushirvon nomi bilan ham bog`liqdir. Kat so`zi - sug`d tilida shahar, qishloq, nuch esa, yaltiroq, go`zal ma'nosini bildirgan.

**SAROYLIK** - Jizzax tumanidagi qishloq nomi bo`lib, hozir Jizzax shahri tarkibiga qo`shilib ketgan. Saroylik "Saroy qabilasi vakili", "Saroy qabilasidan" degan ma'noni bildiradi. Masalan, chimboylik, chimboy urug`i vakili, Bo`stonlik, Bo`ston urug`i vakili va hokazo.

**KARAPCHI** - Baxmal Zomin tumanlaridagi qishloq. Karapchi ba'zi bir shajaralarda 92 bovli o`zbek qavmlari orasida tilga olingan. Surxondaryo viloyatida Karapchi 16 urug`ga bo`linadi.

Karapchi ba'zan esa yuz urug`ining bir tarmog`i sifatida qayd qilingan. Karapchi so`zi "kambag`al, nochor (kishi) " demakdir.

KASHAT - Zomin tumanidagi joy nomi. Kashat "Baland qirg`ok" demakdir. Tojikistonning Jirg`atol tumanida shu nom bilan ataluvchi qishloq bor.<sup>12</sup>

### **NAZORAT TOSHIRIQLARI:**

1. Jizzax nomi qanday ma'honi bildirgan?

- A. Tog`li joy.
- B. baland qo`rg`on.
- C. kichik qo`rg`on.
- D. Zax yer.
- E. Tashlandiq yer.

2. Quyidagi qaysi joy nomi nochor , kambag`al ma'nosini bildirgan?

- A. Solin.
- B. Karapchi.
- C. Kashat.
- D. Sayot.
- E. Duvlat.

3. Viloyatlardagi o`zbek urug`i nomlari bilan atalgan joy nomlarni sanab bering.

4. Qirg`izlar urug`i nomidan kelib chiqqan joy nomini ko`rsating.

- A. Yomchi.
- B. Kaltatoy.
- C. Oldashmon.
- D. Boymoqli.
- E. Jadik.

4. Boymoqli, Guralash, Dargat nomlari ma'nosini tushuntirib bering.

Adabiyotlar :

- 1. A. Nabiev. Tarixiy o`lkashunoslik . T- O`qituvchi: 1996.
- 2. H. Hasanov. O`rta Osiyo joy nomlari tarixidan.- T.O`qituvchi. 1963.
- 3. S. Qoraev. Geografik nomlar ma'nosi.-T.O`zbekiston. 1978.
- 4. Dusimov Z, Egamov X. Joy nomlarini qisqacha izohli lug`ati- T.O`qituvchi, 1977.

## **7 -MAVZU : O`LKASHUNOSLIKNI RIVOJLANTIRISHDA ARXIVSHUNOSLIKNING O`RNI**

### **Asosiy savollar:**

- 1. Markaziy davlat arxivi fondlari. O`zR MDA.
- 2. O`lkashunoslikni o`rganishda arxivshunoslikning o`rni

### **Tayanch tushuncha va iboralar:**

Arxiv, arxiv hujjatlari, DAF, O`zR MDA, ko`rsatkichlar, fondlar

### **1-asosiy savolning bayoni:**

Arxivlarda tashkilotlar, muassasalar, korxonalar, jamoa va davlat xo`jaliklarining, ayrim shaxslarning ko`p yillik faoliyati haqidagi ma'lumotlar, hujjatlar saqlanadi. O`lka tarixini

---

<sup>12</sup> S. Qorayev. Toponimika. T-2009

o`rganishda bu hujjatlarning ahamiyati kattadir. Arxiv hujjatlarini qidirib topish, ular ustida ishlash va olingan ma'lumotlarni hayotga tadbik etish murakkab ish.

